Dilmurod Quronov

# ADABIYOTSHUNOSLIKKA KIRISH



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

Dilmurod QURONOV

# Adabiyotshunoslikka kirish

*(Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik)*

Toshkent
O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
«Fan» nashriyoti
2007

*Mas`ul muharrir:*

**U.Hamdamov,**
filologiya fanlari nomzodi

*Taqrizchilar:*

**H.Boltaboyev,**
filologiya fanlari doktori, professor

**H.Karimov,**
filologiya fanlari nomzodi

**ISBN 978-9943-09-469-7**

© O`zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
«Fan» nashriyoti, 2007 y.

# Muqaddima

**"Adabiyotshunoslikka kirish" kursining maqsad va vazifalari. "Adabiyotshunoslikka kirish" kursining tarkiblanishi, bo`limlari haqida. Kursning manbalari.**

Ma'lumki, umumta'lim maktablarining 5-sinfidan boshlab o`quvchilarga adabiyotshunoslikka oid ilk ma'lumotlar berib boriladi. Maktabda, so`ng o`rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimida adabiyot o`qitish dasturlari o`quvchilarga bosqichma-bosqich badiiy adabiyotning mohiyati, adabiy tur va janrlar, badiiy obraz va obrazlilik, she'r tizimlari, badiiy tasvir va ifoda vositalari kabi adabiy-nazariy tushunchalarni o`rgatib borishni ko`zda tutadi. Biroq mazkur ta'lim muassasalari filolog-adabiyotshunoslar tayyorlashni maqsad qilmagani uchun ham bu ma'lumotlar fragmentar tarzda - konkret badiiy asarlar tahlili jarayonida yoki biror bir adib ijodiy merosini o`rganish barobarida berib borilgan.

Siz, filologiya fakultetiga kirgan talabalar, filolog-mutaxassis bo`lib yetishishni, kelajakda biringiz o`qituvchi, biringiz adabiyotshunos, yana biringiz tilshunos sifatida faoliyat yuritishni niyat qilgansiz. Demak, endi siz til va adabiyotni chuqurlashtirilgan tarzda, ilmiy asosda o`rganishingiz zarur. Buning uchun siz adabiyotshunoslikning ham boshqa fanlar singari jiddiy fan ekanligini, uning oldida turgan muammolarni, ularni hal qilish yo`llarini yorqin tasavvur eta olishingiz kerak. Ehtimol, kimlargadir adabiyotshunoslik, badiiy adabiyot shunchaki ko`ngil xushidek, anchayin yengil, o`rganilishi oson bir soha bo`lib tuyulgan bo`lishi mumkin. Biroq bu yuzaki tasavvurdir. Adabiyotshunoslik ilmi bilan tanishib borganingiz sari badiiy adabiyot, badiiy asar kabi tushunchalarning ancha murakkab hodisa ekanligini, konkret badiiy asarni tahlil qilish, uning badiiy qimmatini belgilash fanning boshqa sohalaridagi izlanishlardan oson ko`chmasligini anglab borasiz. Adabiyotshunoslikning chinakam ilm ekanligini anglash uchun esa uni bir tizim sifatida tasavvur qila bilish zarur.

"Adabiyotshunoslikka kirish" kursi davomida adabiyotshunoslik fani bilan ilk bor sistemali tarzda tanishiladi. Zero, kursning maqsadi ham maktab, litsey va kollejlarda olingan adabiy-nazariy bilimlaringizni muayyan bir tizimga keltirish va mustahkamlashdan

SamDCHTI ARM
№ 564131

iboratdir. "Adabiyotshunoslikka kirish" kursi filologiya fakulteti birinchi bosqich talabalarining maktabda olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash asosida ularni adabiyot tarixi kursidan ma'ruzalar tinglashga, seminar mashg`ulotlarida muayyan mavzuni muhokama qilish, amaliy mahg`ulotlarda qo`yilgan vazifalarni bajarishga tayyorlashni o`z oldiga vazifa qilib qo`yadi.

Amaldagi o`quv rejasida "Adabiyotshunoslikka kirish" kursi uchun ma'ruza, seminar va amaliy mashg`ulot soatlari ajratilgan. Ma'ruza mashg`ulotlarining har birida adabiyotshunoslikning konkret masalasi bo`yicha fikr almashiniladi. "Fikr almashiniladi" deyilishining boisi shuki, ma'ruza paytida faqat ma'ruzani tinglabgina o`tirish yaramaydi. Ma'ruza mashg`ulotlari davomida faol bo`lishingiz, qo`yilgan savollarga javob berishga, mavzuni muhokama qilishga, mavzu yuzasidan savol berish-u kezi kelganda bahslashishga o`zingizni chog`lashingiz kerak. Shuningdek, seminar mashg`ulotlarida talabalarning o`qituvchi rahbarligida muayyan mavzuni atroflicha chuqur muhokama qilishlari, amaliy mashg`ulotlar davomida esa olingan nazariy bilimlarni tatbiq etish ko`nikmalarini hosil qilishlari, rivojlantirishlari lozim bo`ladi. Shuni yodda tutingki, endilikda o`qituvchining vazifasi "bilim berish" emas, yo`nalish berish, "bilim olish yo`llari"ni o`rgatishdir. Baski, berilgan yo`llanmalar asosida "bilim olish" mas'uliyati ko`proq Sizning zimmangizga tushadi. Demak, kelgusida yetuk mutaxassis bo`lish, muvaffaqiyatli ishlash uchun zarur bilimlar zahirasini to`plash yo`lida astoydil ter to`kishingizga, izlanishingizga to`g`ri keladi. Talabalik yillarini o`qish-izlanishda o`tkazib, mashg`ulotlarda faol bo`lgan taqdirdagina ko`zlagan maqsadga erishishingiz mumkin bo`ladi, umringizning guldek davrini zoyega ketkazmagan bo`lasiz.

"Adabiyotshunoslikka kirish" kursi an'anaga ko`ra uchta katta qismga bo`lib o`rganiladi. Kursning birinchi bo`limi "Badiiy adabiyot haqida ta'limot" deb nomlanib, bunda badiiy adabiyotning mohiyati, uning jamiyatdagi o`rni va vazifalari kabi masalalar xususida so`z yuritiladi. Badiiy adabiyotning ikkiyoqlama mohiyat, ya'ni, bir tomondan san'at sohasi, ikkinchi tomondan ijtimoiy ong shakli ekanligi; badiiy adabiyotni san'atga doxil etuvchi obrazlilik va obraz tushunchalari ayni shu bo`limda o`rganiladi. Badiiy adabiyot spetsifikasini yaxshi tasavvur eta olgan talabagina bugungi adabiyotshunoslikda bahsli bo`lib turgan muammolar mohiyatini

anglashi, yaqin kelajakda ularga nisbatan o`z mavqeini belgilay olishi mumkin bo`ladi. Badiiy adabiyotning ijtimoiy ong sohasi sifatida ijtimoiy ongning boshqa shakllari bilan aloqasi, ularning orasida tutgan o`rni, ular bilan aloqasi, o`ziga xosligi kabi masalalar ham shu bo`limda ko`rib chiqiladi. Shuningdek, badiiy adabiyotning boshqa san'at turlari bilan mushtarak va farqli tomonlari, ular bilan aloqaning adabiyot rivojidagi ahamiyati kuzatiladi. Ushbu bo`limda ko`riladigan masalalar ancha murakkab, tushunilishi qiyinroq va shuning uchun sizlar uchun zerikarli ko`rinishi ham mumkin. Biroq mashg`ulotlarda faol bo`lsangiz, aytilayotgan gaplarni mushohada qilib, o`zingizning munosabatingizni bildirib tursangiz, bu tasavvur tezda yo`qoladi. Biz yuqorida adabiyotshunoslikni sistema deb aytdik, sistema esa qismlari o`zaro uzviy bog`langan butunlikni ko`zda tutadi. Ya'ni, uning birorta bo`limi tushunilmasa, qolgan qismlarini-da tushunish qiyinlashadi. Zero, keyingi bo`limlarda ko`riladigan masalalar birinchi bo`limda ko`rilgan masalalar bilan mustahkam aloqadadir.

Ikkinchi bo`lim "Badiiy asar haqida ta'limot" deb nomlanadi. Bu bo`limda badiiy asar tuzilishi, uning shakl va mazmun tomonlari o`rganiladi. Badiiy asarni tahlil qila bilish, uning mohiyati-yu qimmatini o`quvchiga yetkazib berish uchun, avvalo, uning qanday tarkiblanganini, uni tashkil etayotgan unsurlarning o`zaro aloqalarini yorqin tasavvur etish zarurdir. Shunga ko`ra, bu bo`limda badiiy asar sujeti, kompozitsiyasi, badiiy til, inson obrazini yaratish yo`llari va vositalari kabi qator muhim masalalar ko`rib chiqiladi. Ushbu bo`limda o`rganiluvchi masalalar sizni badiiy asarni g`oyaviy-badiiy jihatdan tahlil qilishga tayyorlaydi, buning uchun zarur nazariy bilimlar bilan qurollantiradi.

Nihoyat, kursning uchinchi bo`limida adabiy jarayon, badiiy adabiyotning rivojlanish qonuniyatlari, adabiy tur va janrlar, uslub va metod tushunchalari, badiiy adabiyotdagi turli oqim va yo`nalishlar haqida dastlabki ma'lumotlar bilan tanishtiriladi.

Kursning manbalari. "Adabiyotshunoslikka kirish" kursi bo`yicha bir qator darslik va qo`llanmalar mavjud (T.Boboyev. Adabiyotshunoslikka kirish kursi bo`yicha o`quv metodik qo`llanma.-T.: O`qituvchi, 1979; N.Shukurov va boshq. Adabiyotshunoslikka kirish.-T.: O`qituvchi,1984) bo`lsa-da, ular sezilarli darajada eskirdi. Aytish kerakki, bu darsliklarning badiiy

adabiyot spetsifikasiga bag`ishlangan boblarida (ularda adabiyotning sinfiyligi, partiyaviyligi, metod va sh.k. masalalar xususida so`z boradi) masala sho`ro mafkurasi nuqtayi nazaridan qo`yilgan va o`rgatilgan bo`lib, ular hozirda mutlaqo eskirgan. Darsliklarning boshqa masalalarga (masalan, badiiy asar haqida ta'limot bo`limi) bag`ishlangan boblaridan esa tanqidiy yondoshgan holda foydalanish mumkin va zarurdir. Mazkur holatdan kelib chiqqan holda keyingi yillar ichida bir qator darslik va qo`llanmalar (E.Xudoyberdiyev. Adabiyotshunoslikka kirish.-T.: O`qituvchi, 1995; T.Boboyev. Adabiyotshunoslik asoslari.- T.:O`zbekiston, 2002; H.Umurov. Adabiyot nazariyasi.-T.:Sharq, 2002) nashr etildiki, ular talabalarning adabiyotshunoslik asoslarini egallashlarida muhim manba bo`lib xizmat qiladi.

Ko`rsatilgan darsliklardan tashqari adabiyotshunoslikka oid maxsus lug`atlardan ham foydalanish tavsiya etiladi. Lug`atlar bilan ishlash talabaning ma'lum masala yuzasidan qisqacha ma'lumot olishida, ayrim adabiy-nazariy termin(istiloh)lar ma'nosini tushunishida juda katta yordam beradi. Aytish kerakki, mavjud lug`atlar (H.Homidiy va b. Adabiyotshunoslik terminlari lug`ati.- T.: O`qituvchi, 1967; N.Xotamov, B.Sarimsoqov. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o`zbekcha izohli lug`ati.- T.: O`qituvchi, 1979) ham qisman eskirganini e'tiborda tutish, ulardan ham tanqidiy yondashgan holda foydalanish joiz.

Adabiyotshunoslik ilmidagi, bugungi adabiy jarayondagi yangiliklar bilan, yaratilayotgan yangi badiiy asarlar bilan muntazam tanishib borish to`laqonli adabiyotshunos, mutaxassis bo`lib yetishishning muhim shartlaridandir. Bu narsa darslik va qo`llanmalar kamligi sezilayotgan bugungi kunda yanada katta ahamiyat kasb etadi. Filolog talaba vaqtli nashrlardagi adabiyotshunoslikka oid chiqishlar, adabiy-tanqidiy maqolalar bilan tanishib borsagina bugungi adabiy jarayondan boxabar bo`lishi mumkin bo`ladi. Ikkinchi tomondan, e'lon qilinayotgan she'riy, nasriy yoxud dramatik asarlarni olgan nazariy bilimlaringiz asosida tahlil qilishga harakat qilsangiz, bilimlaringiz mustahkamlanadi. Boz ustiga, o`zingizni tanqid yoki adabiyotshunoslik bobida sinashga urinib ko`rishingiz, adabiy-tanqidiy bahslarda ishtirok etishingiz mumkinki, bu ham yetuk mutaxassis bo`lish tomon tashlangan yana bir qadam bo`ladi. Bu o`rinda talabaning o`zini kichik

olmasligi, jur'at qilishi muhim. Zero, sizning, yangicha sharoitda yetishgan yoshlarning fikri adabiyotshunoslik ilmiga yangi nafas olib kirishi mumkinki, bu yangilanayotgan adabiyotshunoslik ilmimiz uchun ham ahamiyatlidir. Unutmaslik kerakki, vaqtli nashrlar bilan tanishmaslik uchun turli bahonalar topishga urinish, mashg`ulotlarning ko`pligi-yu iqtisodiy qiyinchiliklarni ro`kach qilish o`zni aldashdan boshqa narsa emas. Zero, izlagan imkon topadi. Boz ustiga, universitetlarning kutubxonalarida o`tirib ishlash uchun sharoit ham yetarli, ularning fondlarida esa bo`lg`uvsi adabiyotshunos uchun zarur bo`lgan barcha vaqtli nashrlar topiladi. Bunday nashrlar sifatida esa O`zbekistonda chop etiladigan quyidagi jurnal va gazetalarni ko`rsatish mumkin:

1. "O`zbek tili va adabiyoti" jurnali. Bu jurnal Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti tomonidan chop etilib, unda o`zbek adabiyotshunosligi va tilshunosligiga oid eng yangi ma'lumotlar, fanimizning dolzarb masalalariga bag`ishlangan maqola va ilmiy axborotlar berib boriladi.

2. "Sharq yulduzi" jurnali. Yozuvchilar uyushmasining bu jurnalida yangi yozilgan adabiy asarlar, adabiy-tanqidiy maqolalar muntazam chop etiladi.

3. "Jahon adabiyoti" jurnali orqali jahon adabiyoti va adabiyotshunosligining sara asarlari bilan tanishib, bilim doirangizni kengaytirib borishingiz mumkin bo`ladi.

4. "O`zbekiston adabiyoti va san'ati" va "Yozuvchi" xaftalik gazetalari sahifalarida e'lon qilingan materiallar orqali mamlakatimizdagi adabiy-madaniy hayot yangiliklaridan boxabar bo`lish, bugungi adabiy jarayon tahliliga bag`ishlangan adabiy-tanqidiy maqolalar yoki turli mavzulardagi bahslar bilan tanishish, yangi yozilgan adabiy-badiiy asarlarni kuzatib borish imkoniga ega bo`lasiz.

Shuni ham ta'kidlash joizki, adabiyotshunoslikdan chuqur bilim olish uchun rus va boshqa tillardagi adabiyotlardan foydalanish ham juda muhim. Sizlar maktabda rus tilidan, keyingi paytda ommalashib borayotgan ingliz tilidan yetarli bilim olgansizlar. Endi o`sha bilimlaringizni amalda qo`llashingiz, lug`at yordamida bo`lsa ham boshqa tillardagi adabiyotlardan foydalanishingiz bilim doirangizni kengaytiradi, yetuk mutaxassis bo`lib yetishuvingizga asos bo`lib xizmat qiladi. Zero, boshqa tillardagi adabiyotlar orqali

xorijdagi adabiyotshunoslik haqida tasavvur hosil qilish, ularning yutuqlarini ilmimizga tatbiq etib boyitish imkoniga ega bo`lasiz. Hozircha kutubxonalarda asosan rus tilidagi adabiyotshunoslikka oid kitoblar bo`lsa-da, mamlakatimizning dunyoga yuz ochayotgani sabab endilikda boshqa tillardagi adabiyotlar ham asta-sekin ko`paymoqda. Mahalliy miqyosdagi cheklangan mutaxassis bo`lib qolmaslik uchun bu adabiyotlardan ham unumli foydalanishingiz zarurdir. Jumladan, "Adabiyotshunoslikka kirish" kursi bo`yicha rus tilidagi quyidagi darslik, qo`llanma va lug`atlarni tavsiya etish mumkin:

1. Введение в литературоведение/под.ред. Г.Н.Поспелова.-М., 1987
2. Квятковский А.К. Поэтический словарь.- М.,1964
3. Борев Ю.Б. Эстетика.- М.,1988
4. Хализев В. Теория литературы.- М.,2000
3. Литературный энциклопедический словарь.- М.,1987

Shuningdek, kutubxonalarga rus tilida chop etiladigan bir qator adabiy-badiiy ("Новый мир", "Дружба народов", "Иностранная литература", "Нева", "Октябрь") va ilmiy ("Вопросы литературы", "Вопросы филологии") jurnallar muntazam olinadi. Bu jurnallar mutolaasi orqali siz rus va boshqa xalqlar adabiyotlarida, adabiyotshunoslik ilmida yuz berayotgan yangiliklar haqida yetarli tasavvur olishingiz mumkin bo`ladi. Boz ustiga, bugungi kun talabalarida internet tarmog`i orqali adabiyotshunoslikdagi eng so`nggi yangiliklar bilan muntazam tanishib borish imkoniyati ham kengayib borayotirki, bu imkoniyatdan samarali foydalanish yetuk mutaxassis bo`lib yetishishning garovidir. Deylik, siz yuqorida nomlari keltirilgan rus tilidagi adabiy jurnallar bilan tanishmoqchisiz. Marhamat, www.magazine.rus.ru saytiga kiring-da, kerakli jurnalni ochib o`qing, zarur bo`lsa o`zingizni qiziqtirgan materiallardan nusxa ko`chirib oling. Yoki rus tilidan yaxshi malakaga ega bo`lsangiz, www.rambler.ru qidiruv tizimiga kirib, kalit so`zlar (mas., "литературоведение", "введение в литературоведение", "учебники по литературоведению" va h.) kiritish orqali istalgancha manba topishingiz mumkin. Internetning qulayligi shundaki, qidiruvga o`zingizni qiziqtirgan masala bo`yicha kalit so`z (mas.: "сюжет",

"модернизм", "поэтика", "поэтический синтаксис" va h.) kiritib, unga oid adabiyotlar topishingiz, u yoki bu yozuvchi, shoir yo adabiyotshunos ijodi bo`yicha ham yetarli ma'lumot to`plashingiz mumkin bo`ladi. Hozirda internet tarmog`i o`zbek tilidagi materiallar bilan kundan-kunga boyib bormoqda. Jumladan, Ziyo Net internet tarmog`ining rivojlanib borayotgani buning yaqqol dalilidir. Internetdan foydalanuvchilar o`zbek tilidagi materiallarni qidirish, ulardan foydalanish uchun, asosan, www.google.co.uz, www.rambler.ru kabi xalqaro universal qidiruv tizimlaridan foydalanib kelmoqdalar. Tanlangan mavzuni qidirish jarayonida ushbu saytlar ilmiy va noilmiy millionlab saytlarni soniyalar ichida g`alvirdan o`tkazadi va sizga zarur bo`lgan materiallarni taqdim etadi. Shuningdek, www.scirus.com qidiruv tizimi ham qulay serverlardan sanaladi. Bu sayt yuqoridagilardan farqli o`laroq, faqat ilmiy saytlarnigina g`alvirdan o`tkazadi. Siz uchun qiziqarli va boy materiallar taqdim eta oladigan saytlardan yana biri www.wikipedia.org ensiklopediksayti hisoblanadi.Biz yuqoridaveb manzillarini zikr qilgan barcha saytlar dunyoning yuzlab tillari, jumladan, o`zbek tilidagi minglab ilmiy va ilmiy-ommabop materiallar bilan tanishtirishi mumkin.

# Adabiyotshunoslik fan sifatida

**Adabiyotshunoslik fanining predmeti. Adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlari: adabiyot tarixi, adabiy tanqid, adabiyot nazariyasi. Adabiyotshunoslikning yordamchi sohalari. Adabiyotshunoslikning boshqa fanlar bilan aloqasi.**

*Adabiyotshunoslik fanining predmeti.* Fanning predmeti deyilganda o`sha fan nimani o`rganishi nazarda tutiladi. Adabiyotshunoslik ("adabiyot" + "shinos", ya'ni o`rganish, yaxshi bilish + "lik") fanining nomidanoq uning o`rganish sohasi adabiyot ekanligi ochiq-oshkor ko`rinib turadi. "Adabiyot" so`zi arabcha "adab" so`zining ko`plik shakli bo`lib, u keng va tor ma'noda qo`llaniladi. Keng ma'noda qo`llanilganda "adabiyot" so`zi o`qishga mo`ljallab yozilgan va chop qilingan barcha asarlarni o`z ichiga oladi. Shunga qaramay, "adabiyot" so`zi (termini) tor ma'noda ham juda faol ishlatiladi va bunda so`z san'atiga daxldor bo`lgan asarlar - badiiy adabiyot tushuniladi. E'tiborli jihati shuki, istilohning ayni shu tarzda (tor va keng ma'nolarda) qo`llanilishi rus va boshqa bir qator tillarda ishlatiluvchi "literatura" so`ziga ham xosdir. Zero, bu termin ham "litera" ("harf") so`zidan olingan bo`lib, keng ma'noda umuman chop etilgan mahsulotni, tor ma'noda badiiy adabiyotni anglatadi. Biz mutaxassis sifatida "adabiyot" so`zining tor ma'nosini ishlatamiz va bunda badiiy adabiyotni nazarda tutamiz.

Demak, adabiyotshunoslikning o`rganish sohasi - predmeti badiiy adabiyot ekan. Adabiyotshunoslik badiiy adabiyotning kelib chiqishi, rivojlanish qonuniyatlari, ijtimoiy aloqalarini har jihatdan va atroflicha o`rganadi. Adabiyotshunoslikning predmeti bo`lmish badiiy adabiyotga taalluqli ilmiy muammolar ko`lami juda keng. Ularning bir qismi umumestetik (ya'ni, badiiy san'at sohalarining barchasiga xos) muammolar sirasiga kirsa, boshqa bir qismi sof adabiyotshunoslik muammolari sanaladi. Deylik, badiiy obraz va obrazlilik, badiiy obraz va reallik munosabatlari, dunyoqarash va badiiy ijod, badiiy ijod jarayoni xususiyatlari, badiiy asarni qabul qilish jarayoni xususiyatlari kabi qator muammolar umumestetik xarakterga ega. San'atning barcha turlariga taalluqli bu muammolarni adabiyotshunoslik badiiy adabiyot nuqtayi nazaridan, badiiy

adabiyot bilan bog`lagan holda va uning misolida o`rganadi. Badiiy adabiyotning mohiyati, uning rivojlanish omillari va qonuniyatlari, badiiy (adabiy) asar tabiati, uning tuzilishi, badiiy (poetik) til xususiyatlari, adabiy tur va janrlar kabi qator masalalar borki, ular sof adabiyotshunoslik muammolari sanalishi mumkin.

Adabiyotshunoslik bu muammolarni nima maqsadda o`rganadiq Umuman, ularni o`rganishga zarurat bormi? Axir, adabiyotshunoslikdan bexabar bo`lgan holda ham badiiy asarni o`qib zavqlanish yoxud go`zal asarlar yaratish mumkin emasmi? Bir qarashda bu xil savollarning yuzaga kelishi tabiiy va asoslidek, adabiyotshunoslikning badiiy adabiyotni o`rganishdan maqsadi o`rganishning o`zi bo`lib qolayotgandek ko`rinishi mumkin. Aslida esa bu xil savollarning yuzaga kelishi adabiyotshunoslik ilmining ahamiyatini tushunmaganlikdan, uning vazifalari va rolini tasavvur qila olmaganlikdandir. Umumiy bir nazar tashlashdayoq adabiyotshunoslik ilmining ikki jihatdan - badiiy adabiyotning rivojlanishi va badiiy did tarbiyasi jihatlaridan ahamiyatli ekanligi ko`rinadi. Ya'ni, aslida adabiyotshunoslik fani yutuqlari ijodkorlarga ham, o`quvchi ommaga ham kerak. Zero, adabiyotshunoslik badiiy asarni tahlil qilib, unga joziba baxsh etayotgan, undagi ifodaviylik va tasviriylikni, badiiy ta'sir kuchini oshirayotgan unsurlarni, muallifning muayyan badiiy samaraga erishishiga yordam berayotgan usul va vositalarni ochib beradi (e'tiborda tutingki, adabiyotshunoslik bu ishni asrlar davomida bajarib keladi). Ya'niki, adabiyotshunoslik badiiy so`z san'ati yutuqlarini ochib beradi va umumlashtiradi. Endi adabiyotshunoslikdan ozmi-ko`pmi xabari bo`lgan odamning va undan mutlaqo xabarsiz odamning badiiy ijodga qo`l urgani yoki badiiy asar mutolaasiga kirishganini tasavvur qiling. Ulardan qaysi birining harakatlari ko`proq samara beradi? Tabiiyki, adabiyotshunoslikdan xabardor kishining harakatlari samaraliroq bo`ladi, chunki u "qaytadan velosiped kashf etish"dan qutuladi. Albatta, bunda kishining iqtidor darajasi, tug`ma iste'dodi ham katta ahamiyatga molik. Biroq, birinchidan, o`sha tug`ma iste'dod degan narsa ham genlar bilan bog`liq, ya'ni, undagi iste'dod ajdodlari to`plagan bilim-u tajribalarning qaymog`idir. Ikkinchi tomondan, tug`ma iste'dodlar barmoq bilan sanarli, shunday ekan, adabiyotshunoslik ommaning badiiy didini tarbiyalashda ham, badiiy tafakkur rivojida ham sezilarli ahamiyat kasb etaveradi.

Yuqoridagilarni xulosalab aytish mumkinki, badiiy adabiyotga taalluqli muammolarni atroflicha va chuqur ilmiy o`rganish - adabiyotshunoslikning vazifasi; chiqargan ilmiy xulosa va umumlashmalari orqali badiiy adabiyot taraqqiysi, badiiy tafakkur rivojiga xizmat qilish, badiiy did tarbiyasiga ta'sir o`tkazish uning maqsadidir.

*Adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlari.* Hozirgi zamon adabiyotshunoslik fani uchta asosiy tarkibiy qismdan, uchta asosiy sohadan tashkil topadi: adabiyot nazariyasi, adabiyot tarixi va adabiy tanqid. Mazkur sohalarning har biri adabiyotshunoslikning muayyan masalalar majmuini o`z nuqtayi nazaridan o`rganadi. Shu bilan birga, mazkur sohalar o`zaro mustahkam aloqada bo`lib, biri ikkinchisini to`ldiradi.

*Adabiyot tarixi* o`tmish adabiyotini (jahon yoki biror milliy adabiyotni) uzluksiz jarayon yoki shu jarayonning bosqichlaridan biri sifatida o`rganadi. Adabiyot tarixining asosida tarixiylik prinsipi yotadi. Mazkur prinsipning mazmun-mohiyati shuki, u adabiy jarayonni konkret ijtimoiy-tarixiy sharoit bilan bog`liq hodisa sifatida o`rganishni taqozo qiladi. Zero, adabiyot kishilik jamiyati taraqqiyotining muayyan bir bosqichida paydo bo`lib, uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga muqobil tarzda taraqqiy etib keladi. Bas, konkret davr adabiy hodisasini faqat adabiy-badiiy omillarning o`zi bilangina izohlab bo`lmaydi, uning ijtimoiy-tarixiy omillarini ham ochish taqozo etiladi. Masalan, X-XII asrlarga kelib turkiy tildagi yozma adabiyotning rivojlana boshlagani turkiy sulolalarning paydo bo`lishi bilan bevosita bog`liqdir. Chunki bu tarixiy hodisa sababli turkiy xalqlar turmush tarzida ma'lum o`zgarishlar yuz berdi: ularning bir qismi o`troqlasha boshladi, turmushlariga tamaddunning yangicha shakllari kirib keldi. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg`u bilig" asari, aytish mumkinki, shu tarixiy sharoit keltirib chiqargan ehtiyoj talabi bilan yozilgan: unda davlatni boshqarish tartibi, ijtimoiy tabaqalar va ularning o`zaro munosabati, har birining jamiyatda tutgan o`rni, vazifalari haqida gap borishi yangilanayotgan ijtimoiy turmushni anglatish zarurati bilan bog`liqdir. Dostonning bir o`rnida shoir o`zini Firdavsiy bilan, asarini "Shohnoma" bilan qiyoslaydiki, buni oddiygina faxriya, muallif ichki qoniqishining ifodasi debgina tushunish kam, buning chuqurroq sabablari bor. Albatta, tamaddun bobida

o`zlaridan birmuncha ilg`orlab ketgan xalqlar bilan aloqada yashash turkiylarning yetakchilari hamda fozil kishilariga o`z xalqini shu darajaga yetkazish, milliy madaniyatni taraqqiy ettirish zaruratini chuqur his ettirmasligi mumkin emas edi. Ya'ni, garchi qo`limizda manba bo`lmasa-da, shu davrdayoq bu toifa kishilarning aksariyati ikki asr keyinroq "Muhabbatnoma"ning yozilishiga turtki bergan Muhammadxojabek singari fikr yuritgan bo`lishlari haqiqatga yaqinroq. U forsiyda asarlar yozgan Xorazmiyga murojaat qilib, "Tilarmenkim bizning til birla paydo, Kitobe aylasang bu qish qotimdo" deydi. Aytmoqchimizki, Yusuf Xos Hojibning faxr etishi o`troq tamaddun yo`liga kira boshlagan xalq vakili dilidagi sog`lom raqobat ifodasidir. Demak, yuqorida eslatilgan tarixiy jarayonlar turkiy xalqlar tarixida "uyg`onish" davrini boshlagan, adabiyotdagi jonlanish ham shuning hosilasidir.

Adabiyot tarixchisi sifatida konkret badiiy asar tahlil qilinganida ham o`sha asar yaratilgan davr sharoiti, davr adabiy jarayoni xususiyatlarini ko`zda tutish shart qilinadi. Zero, har qanday asar konkret davrning mahsuli, unda o`zi yaratilgan davr qay yo`sin bo`lmasin, baribir, aks etadi. Masalan, "Xamsa"ni o`rganayotgan odam Husayn Boyqaro bilan uning o`g`illari orasidagi ziddiyatli munosabatlarni, sulton Husayn hokimiyatining so`nggi yillarida mayga ruju qo`ygani kabi holatlarni e'tiborda tutishi shart. Aks holda, u Farhodning otasi bilan munosabatlari tasviri yoki shoh Bahrom saltanatining avvalgi va ayshga berilganidan keyingi davri qiyoslari mohiyatini yetarlicha anglay olmaydi. Shunga o`xshash, ijtimoiy-tarixiy sharoit va adabiy jarayondagi holatlar haqida yetarli tasavvurga ega bo`lish nafaqat uzoq o`tmish, balki sho`ro davrida yaratilgan asarlar mazmun-mohiyatini to`g`ri anglash uchun ham juda muhim. Tasavvurning chala yoki biryoqlama bo`lishi o`rganilayotgan asar mazmunining noto`g`ri anglanishi, demak, yanglish talqin etilishi va noxolis baholanishiga olib keladi. Masalaning ikkinchi muhim tomoni shundaki, o`rganilayotgan asar faqat konkret davrning emas, o`sha davrda yashagan ijodkorning mahsuli (ijodkorning o`zi shaxs sifatida davrning mahsuli bo`lsa, asar uning mahsulidir), boshqacha aytsak, asarda davr ijodkor shaxsi orqali akslanadi. Shu ma'noda, adabiyot tarixi o`rganadigan muhim masalalardan yana biri konkret ijodkor faoliyatidir. Zero, ijodkor faoliyatini o`rganganda, uning ijodiy o`sish jarayonini kuzatganda

ham asosgaqo`yilgan prinsip tarixiylikbo`lishi lozim.Chunki ijodkor hayoti, bir tomondan, millat tarixidagi muayyan bir davrning tarkibiy qismi, ikkinchi tomondan, u butunning o`sha ijodkor shaxsi bilan bog`liq holda yashab o`tilgan, ya'ni boshqalariga aynan o`xshamagan qismidir. Boshqacha aytsak, ijodkor ma'lum bir davrda yashaydigina emas, davr uning o`zida ham yashaydi. Bu esa har bir ijodkor haqida so`z borganida, davrning kechishi bilan bog`liq holda uning dunyoqarashida muayyan o`zgarishlar yuz berib turganini har vaqt nazarda tutmoq lozim deganidir. Deylik, ijodkor haqida bir bor hosil qilib olingan yaxlit tasavvur asosida uning barcha asarlarini talqin qilish to`g`ri emas. Bu o`rinda o`rganilayotgan asar yaratilgan vaqtdagi konkret tarixiy sharoit va uning ijodkor ruhiyati, dunyoqarashiga ta'siri nazarda tutilishi lozim. Masalan, 20-yillarda adabiyotga kirib kelgan Oybek, G`.G`ulom, A.Qahhorlar haqida so`z borganida, ular bir davr kishilari ekanligini ham, har birining o`ziga xos sharoitda shakllangan alohida shaxsligini ham e'tiborga olish lozim. Shunisi ham aniqki, 20-yillardagi Oybek, G`.G`ulom, A.Qahhorlar bilan 60-yillardagi Oybek, G`.G`ulom, A.Qahhorlar bir-biridan jiddiy farq qiladi. Alohida ijodkor faoliyatini o`rganayotgan adabiyot tarixchisi qarshisidagi vazifaning murakkabligi shundaki, u o`sha ijodkor hayoti kechgan davrni ham, ijodkor hayot yo`lini ham atroflicha chuqur bilishi lozim. Ya'ni, davr haqida ham, ijodkor hayoti haqida ham umumiy tasavvurning o`zi adabiyot tarixchisi uchun kamlik qiladi, ularni tafsilotlari bilan chuqur o`rganish talab etiladi.

Adabiyot tarixi o`tmish adabiyoti xususiyatlarini ochib berarkan, bu bilan, birinchidan, o`tmish adabiyoti tajribalarini bugungi adabiyot xizmatiga safarbar etadi, ikkinchidan, keng ko`lamli nazariy xulosalar chiqarish uchun zarur material hozirlaydi. Bulardan anglashiladiki, adabiyot tarixi badiiy tafakkur taraqqiyotida ham, adabiy-nazariy tafakkur rivojida ham katta ahamiyat kasb etadi.

O`zbek adabiyotshunosligida adabiyot tarixi sohasining dastlabki kurtaklari sifatida tazkiralarni ko`rsatish mumkin. Shuningdek, qator tarixiy asarlarda ayrim adabiy faktlar, muayyan ijodkor hayoti va faoliyatiga doir ma'lumotlar ham qayd etilganligi tayin. Biroq o`zbek adabiyotini tarixiy aspektda ko`lamli o`rganish, demakki, o`zbek adabiyotshunosligida adabiyot tarixining mustaqil tarmoq

sifatida shakllanishi va rivoji XX asrga to`g`ri keladi. O`zbek adabiyot tarixchiligining shakllanishida A.Fitrat, A.Sa'diy, V.Mahmud, Olim Sharafiddinovlarning xizmatlarini alohida qayd etish lozim. Jumladan, 20-yillar vaqtli matbuotida mazkur olimlarning mumtoz adabiyotimiz namoyandalari, ularning asarlari haqidagi qator maqolalari muntazam e'lon qilib borildi. Fitratning "Eng eski turkiy adabiyot namunalari"(1927), "O`zbek adabiyoti namunalari"(1928) nomli majmualari adabiyot tarixi bo`yicha xronologik tizimga solingan dastlabki ishlar sifatida qaralishi mumkin. 30-yillar oxiriga kelib tavalludining 500 yilligini nishonlashga tayyorgarlik doirasida Alisher Navoiy ijodi keng ko`lamda tadqiq etila boshlandi: buyuk shoirning hayoti va ijodi bo`yicha matbuotda o`nlab maqolalar e'lon qilindi, keyinroq esa A.Sa'diy va O.Sharafuddinovlarning Navoiy ijodiga bag`ishlangan tadqiqotlari dunyoga keldi. O`zbek adabiyoti tarixini o`rganishda V.Zohidov, V.Abdullayev, H.Sulaymon, G`.Karimov, N.Mallayev, A.Qayumov, A.Xayitmetov, A.Abdug`afurov singari olimlarning ulkan xizmatlarini alohida qayd etmoq lozim. Zikr etilgan va boshqa ko`p olimlarning izlanishlari samarasi o`laroq, 1977-1980-yillarda 5 jildlik "O`zbek adabiyoti tarixi", 1987-1989-yillarda "История узбекской литературы" nomli fundamental tadqiqotlar yuzaga keldi.

O`zbek adabiyoti tarixini o`rganish borasidagi izlanishlar hozirgi kunda ham davom ettirilayotir. Bugungi kun o`tmish merosimizga munosabatni o`zgartirishni, qator adabiy hodisalar, faktlar, ijodkor shaxslar taqdiri va faoliyatini yangicha ilmiy talqin qilish zaruratini kun tartibiga qo`ygani ma'lum. Demak, bugunda saboq olayotgan talabalarni milliy adabiyotimiz tarixini ilmiy xolis o`rganish, yangi "O`zbek adabiyoti tarixi"ni yaratishdek ulkan va mashaqqatli, sharafli bir vazifa kutadi.

*Adabiy tanqid* o`z oldiga hozirgi adabiy jarayon muammolarini o`rganish, yangi paydo bo`lgan asarlarni (shuningdek, o`tmishda yaratilgan asarlarni ham) bugungi kun nuqtayi nazaridan g`oyaviy-badiiy tahlil qilish va baholashni maqsad qilib qo`yadi. Ba'zan, adabiyotshunoslikdan yiroq kishilarda, "tanqid" so`zini tor ma'noda tushunish oqibati o`laroq, adabiy tanqid badiiy asarning kamchiliklarini topish-u ijodkorlarni "tanqid qilish" bilan shug`ullanadi qabilidagi tasavvur mavjudligi kuzatiladi. Bu noto`g`ri tasavvurdir. Zero, tilimizda faol qo`llanuvchi "tanqid"

so`zi "Ish-harakat, faoliyat, asar, ta'limot va sh.k.ning salbiy va ijobiy tomonlarini, yutuq va kamchiliklarini biror nuqtayi nazardan qarab tekshirish, tahlil qilish, baholash" tarzida izohlanadi. Shunisi e'tiborliki, rus tilida qo`llanuvchi "kritika", ingliz tilida ishlatiluvchi "kritisism" so`zlarining izohi ham shunga monand: S.Ojegov lug`atida bu so`zning birinchi ma'nosi "biror narsani baho berish maqsadida tahlil qilmoq, muhokama qilmoq" sifatida beriladi. Ko`rib turganimizdek, "tanqid" - kamchilik izlash emas, balki baholash maqsadida muhokama qilmoq ekan.

Adabiy tanqid - adabiyotshunoslikning operativ, joriy adabiy jarayonga bevosita aralashadigan sohasidir. Adabiy tanqid adabiyotshunoslikning boshqa sohalaridan bir qator jihatlari bilan ajraladiki, bu narsa uning tabiati, o`ziga xos maqsad va vazifalari bilan izohlanadi. Adabiy tanqid o`zida adabiyotshunoslik ilmi, badiiy adabiyot va publitsistikaga xos jihatlarni uyg`unlashtiradi. Ma'lumki, adabiy-tanqidiy asar faqat ilmiy doiralar uchungina emas, balki ancha keng auditoriyaga mo`ljallab yoziladi. Shunga ko`ra, uning tili - ilmiy-ommabop til. Boz ustiga, badiiy asar haqida so`z borarkan, tanqidchi faqat tushunchalar vositasida emas, ba'zan obrazlar vositasida ham fikrlaydi; mantiqiygina emas, hissiy mushohadalarga ham tayanadi. Badiiy asar haqida fikr yuritayotgan, uni bugungi kun nuqtayi nazaridan baholayotgan tanqidchi o`quvchi ommaga bevosita ta'sir qilishni ham ko`zda tutadi. Ayni paytda, badiiy asarni tahlil qilayotgan tanqidchining fikrlari adabiyot nazariyasiga, adabiyotshunoslik ilmining yutuqlariga asoslanadi. Bularning bari adabiy tanqidni adabiyotshunoslik, badiiy adabiyot va publitsistika oralig`idagi hodisaga aylantiradi.

O`zbek adabiy tanqidchiligining ilk kurtaklari ham tazkiralarga borib taqaladi. Shuningdek, mutaxassislar o`tmish adabiy jarayoniga xos bo`lgan mushoiralar, nafis majlislarda "og`zaki tanqid" mavjud bo`lganligini ham ta'kidlaydilar. Biroq hozirgi tushunchadagi, yangi tipdagi o`zbek adabiy tanqidchiligining shakllanishi ham XIX asr oxiri - XX asr boshlariga to`g`ri keladi. Yangi tipdagi adabiy tanqidchilikning shakllanishi milliy matbuotning shakllanishi bilan bog`liq holda amalga oshdi. O`zbek adabiy tanqidchiligining shakllanishida jadidchilikning ko`zga ko`ringan namoyandalari M.Behbudiy, A.Fitrat, H.Muin, shuningdek, jadidchilik ta'sirida adabiyot maydoniga kirgan V.Mahmud, Cho`lpon kabi

ijodkorlarning katta xizmatlari bor. O`zbek adabiy tanqidchiligi murakkab rivojlanish yo`lini bosib o`tdi. Bu yo`lda "vulgar sotsiologizm", "partiyaviylik", "sinfiylik", "konfliktsizlik nazariyasi" singari g`ayriilmiy, g`ayriadabiy dogmalardan jiddiy talafot ko`rdi. Afsus bilan qayd etish lozimki, O.Hoshim, S.Husayn, M.Solihov kabi adabiyotshunoslar, H.Olimjon, Uyg`un, K.Yashin singari ijodkorlarning qator adabiy-tanqidiy asarlari badiiy tafakkur rivojiga emas, balki ko`proq chinakam so`z san'atining zarariyu mustabid tuzumning hokim mafkurasiga xizmat qildi va shu bois ham ular bugungi kunda batamom eskirdi.

Yuqoridagicha yo`qotishlarga qaramasdan, o`zbek adabiy tanqidchiligi badiiy didni tarbiyalash orqali adabiyotimiz rivojiga sezilarli hissa qo`shganligini ham tan olish zarur. O`zbek tanqidchiligining M.Qo`shjonov, O.Sharafiddinov, U.Normatov, S.Mirvaliyev, I.G`afurov, A.Rasulov, M.Mahmudov kabi qator namoyandalarining chiqishlarida, garchi ular ham mafkura tazyiqidan to`la forig` bo`lmasa-da, adabiyotimizning dolzarb muammolari ko`tarildi, ko`plab asarlarning badiiy jozibasi ochib berildi va imkon qadar xolis baholandi.

*Adabiyot nazariyasi* badiiy adabiyotning mohiyati, adabiyot taraqqiyotining umumiy qonuniyatlarini, jamiyat hayotidagi o`rni va vazifalari, badiiy asar tabiati hamda uning tuzilishi kabi masalalarni umumiy tarzda o`rganadi va shu asosda umumiy qonuniyatlarni ochib beradi. Adabiyot nazariyasi badiiy asarlarni tahlil qilish tamoyillari, baholash mezonlari, tahlil metodlarini ishlab chiqadi, adabiy-nazariy tushunchalar tizimini yaratadi. Adabiyot nazariyasi adabiyot tarixi va adabiy tanqid materiallarini umumlashtirsa, bu ikkisi o`z faoliyatida adabiyot nazariyasi ochgan qonuniyatlar, u ishlab chiqqan ilmiy tushunchalar tizimiga tayanadi. Shu tariqa adabiyotshunoslikning har uchala asosiy sohalari bir-biri bilan bog`lanadi, yaxlit bir tizim - adabiyotshunoslik ilmini tashkil qiladi.

Mumtoz Sharq adabiyotshunosligida, jumladan, o`zbek adabiyotshunosligida adabiyot nazariyasining bir qator masalalari ancha keng o`rganilgan. Bunday masalalar sirasiga ilmi aruz (Navoiy, Bobur), ilmi qofiya, ilmi badia(Atoulloh Husayniy) kabilarni kiritish mumkin. Ko`rib turganimizdek, bu masalalar adabiyotshunoslikning bir qismi - poetika doirasi bilan cheklangan

SamDCHTI ARM
№ 56431

edi. Sharqda "muallimi soniy" deb ulug`lanuvchi Forobiy esa yunon faylasufi Arastu ta'sirida va bevosita uning asarlarini sharhlash jarayonida badiiy adabiyot spetsifikasi(mohiyati) masalalariga e'tibor qilgan edi. Biroq mumtoz adabiyotshunoslikda adabiyot nazariyasi ham muayyan bir tizim holiga kelmagan, tatbiqiy harakterdagi hodisa edi. O`zbek adabiyotshunosligida adabiyot nazariyasining alohida tarmoq sifatida shakllanishi ham XX asrda amalga oshdi. O`zbek adabiyotshunosligining ilk nazariyotchilari sifatida A.Fitrat, A.Sa'diylarni ko`rsatish mumkin. Adabiyotshunosligimizning keyingi taraqqiyoti davomida I.Sulton, N.Shukurov, L.Qayumov, B.Sarimsoqov, B.Nazarov, T.Boboyev kabi qator nazariyotchi olimlarning tadqiqotlari adabiy-nazariy tafakkur rivojiga sezilarli hissa bo`lib qo`shildi.

*Adabiyotshunoslikning yordamchi sohalari.* Adabiyotshunoslikning yuqorida sanalgan asosiy sohalari bilan bir qatorda, ularning faoliyati uchun zarur bo`lgan muayyan amaliy vazifalarni bajarish bilan shug`ullanuvchi matnshunoslik, manbashunoslik, kitobiyot (bibliografiya) kabi qator yordamchi sohalar ham mavjud.

*Matnshunoslik.* Matnshunoslik bobidagi ilmiy izlanishlarning oxir natijasi adabiyot tarixi va nazariyasi uchun manbaviy asos yaratib berish bo`lganligidan unga adabiyotshunoslikning yordamchi sohalaridan biri sifatida qarab kelinadi. Shunga qaramay, matnshunoslikni filologik fanlarning alohida tarmog`i, mustaqil bir sohasi sifatida tushunish to`g`riroq bo`ladi. Negaki, birinchidan, matnshunoslik faoliyati adabiyotshunoslik, tilshunoslik va tarix fanlari kesishgan nuqtada kechadi; ikkinchidan, matnshunoslikning o`zi ilmiy izlanishlarida qator yordamchi sohalarni (paleografiya, uslubshunoslik, arxeografiya va h.) o`ziga xizmat qildiradi.

Adabiy matnlarni o`rganish va nashrga tayyorlash matnshunoslikning vazifasidir. Matnshunoslikning vazifasini juda qisqa ifodalagan bo`lsak-da, uning amalga oshirilishi juda katta mehnatni, chuqur bilim va tajribani talab qiladi. Ma'lumki, xalqimiz boshidan necha-necha istiloy-u qatag`onlar kechganiga qaramay, ajdodlarimizdan bizga boy adabiy meros qolgan: minglab jildlardan iborat qo`lyozmalar xazinasiga egamiz. Biroq bu qo`lyozmalarning aksariyati hali o`rganilgan emas, ro`yxatga olib qo`yilgani bo`yi o`z tadqiqotchilarini kutadi. Shuning o`zi ham matnshunoslikning

og`ir, ilmning "qora mehnati" ekanligini, uni rivojlantirish ham ilmiy, ham ma'naviy-ma'rifiy jihatlardan zarurligini ko`rsatadi. Adabiy matnni o`rganayotgan matnshunos oldida turli-tuman ilmiy muammolar ko`ndalang bo`ladi. Deylik, matnshunos muallifi noma'lum asar(matn)ga duch keldi. Bu holda u matn muallifini, yoshini (yozilgan, ko`chirilgan vaqti) aniqlashi zarur bo`ladi. Buning uchun esa u, tabiiyki, adabiyot tarixi, til tarixi, manbashunoslik, uslubshunoslik kabi sohalardan yaxshi xabardor bo`lishi va ularga tayangan holda matnni tadqiq etishi lozim bo`ladi. Yoki matnshunoslikning boshqa bir vazifasi - asarning ilmiy-tanqidiy nashrini tayyorlashni olaylik. Masalan, Alisher Navoiy asarlarining turli davrlarda, turli kotiblar tomonidan ko`chirilgan qo`lyozmalari mavjud. Matnshunos qarshisida ularni qiyosiy o`rganish, birining kamchiliklarini boshqalari bilan to`ldirish va shu asosda eng mukammal - ilmiy-tanqidiy matnni tayyorlash vazifasi turadi.

Tayyor bo`lgan ilmiy-tanqidiy matnni nashr ettirish uchun matnshunos uni izohlar, sharhlar, lug`atlar bilan ta'minlashi kerak. Unutmangki, biz foydalanadigan "Mukammal asarlar" ortidagi har bir izoh, har bir sharh yoki lug`at birligi juda katta mehnat orqasida dunyoga keladi. Zero, matnda uchragan so`z ma'nosini topish, undagi biror shaxs, joy nomi va sh.k.larga izoh berish uchun matnshunos juda ko`p izlanishi, ko`plab manbalarni ko`rib, o`rganib chiqishi zarur bo`ladi.

Yuqoridagicha mustaqil tadqiqotlardan tashqari, matnshunoslik adabiyotshunoslikning ayrim muammolarini hal qilishda muhim yordamchi soha, tadqiqot usuli bo`lib ham xizmat qiladi. Masalan, uning tadqiq usullaridan, tajribalaridan yozuvchi ijodiy laboratoriyasini, muayyan asarning ijodiy tarixini o`rganish yo`lidagi izlanishlarda keng foydalaniladi.

*Manbashunoslik.* Adabiyotshunoslikning yordamchi sohalaridan biri sifatida manbashunoslik adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasiga oid manbalarni izlab topish, tasniflash, ro`yxatga olish kabi amaliy vazifalarni bajarish, shuningdek, manbalarni qidirish va o`rganish yo`llarini ishlab chiqish bilan shug`ullanadi. Bu o`rinda "manba" deyilganda adabiyotshunoslikka oid tadqiqotlarda qo`l kelishi mumkin bo`lgan barcha manbalar tushuniladi: asar qo`lyozmalari, ijodkorlarning xatlari, kundalik daftarlari, adabiy

jarayonga yoki muayyan ijodkor hayoti va ijodiga taalluqli hujjatlar va boshqalar. Keyingi yillarda o`zbek adabiyotshunosligining manbashunoslik bobidagi izlanishlari, ayniqsa, XX asr boshlari adabiyotini o`rganish bilan bog`liq holda faollashdi. Qatag`on qilingan adib va shoirlarning ijodiy merosini tiklash, ularning hayoti va faoliyatiga doir hujjatlarni izlab topish borasida N.Karimov, B.Qosimov, H.Boltaboyev, S.Ahmedov, B.Do`stqorayev, R.Tojiboyev, B.Karimov, M.Qarshiboyev kabi olimlarning izlanishlari samarali bo`lib, ular asr boshidagi adabiy jarayon, unda faol ishtirok etgan ijodkorlar haqidagi tasavvurlarimizni boyitishga, davr adabiyotining xolis ilmiy tarixini yaratishga xizmat qildi. Ma'lumki, konkret ijodkor merosini to`laqonli tushunish va xolis baholash uchun uning hayot yo`li haqida to`liq tasavvurga ega bo`lish muhim ahamiyat kasb etadi. Ya'ni, adabiyotshunoslikdagi tadqiqot metodlaridan biri - biografik metodning to`la samara bilan ishlashi uchun konkret ijodkor hayoti va faoliyati haqidagi hujjatlarga ega bo`lish lozim. Afsuski, ko`plab ijodkorlarimiz haqida ma'lumot beruvchi hujjatlar hali to`la yig`ilgan emas. Bu borada faqat Hamza arxivi yuzasidan qilingan ishlar (bunda professor L.Qayumov xizmatlarini alohida ta'kidlash lozim) bilangina maqtanish mumkin. Shuningdek, Oybek, A.Qahhor singari ulkan adiblarimizning uy-muzeylarida faoliyat ko`rsatayotgan ilmiy xodimlarning sa'y-harakati bilan ular haqidagi hujjatlar yig`ilgan, tartiblangan. Bu manbalar mazkur adiblarning ijodiy merosini o`rganish, qayta baholashda beqiyos ahamiyatga ega bo`ladi.

*Bibliografiya* (Kitobiyot). Adabiyotshunoslik bibliografiyasi adabiyotshunoslikning ilmiy-amaliy sohasi sanalib, adabiyotshunoslikka oid ilmiy asarlar, maqolalar, shuningdek, badiiy asarlar ro`yxatini, bibliografik qo`llanma, ko`rsatkichlar tuzish bilan shug`ullanadi. Yordamchi soha sifatida adabiyotshunoslik bibliografiyasi ilmiy-tadqiqotlarning samarali bo`lishiga xizmat qilish, badiiy adabiyotni targ`ib qilish kabi maqsadlarni ko`zlaydi. Bibliografiar tomonidan tuzilgan bibliografik ko`rsatkich va qo`llanmalar tadqiqotchilarga katta amaliy yordam beradi.

Adabiyotshunoslikning boshqa fanlar bilan aloqasi. Bugungi kun kishisining tafakkur darajasi, insoniyat tomonidan to`plangan

bilimlar ko`lami benihoya kengaygan. Qadimda fanlar o`zaro ajralmagan, xususan, adabiyotshunoslik ham falsafa ichidagi bir hodisa edi. Kishilik jamiyatining taraqqiyoti, inson tafakkurining rivoji davomida turli fanlar alohida mustaqil fanlar sifatida ajralib chiqdi. Biroq bu ajralishni tamomila mahdudlashish deb tushunmaslik lozim. Chunki adabiyotshunoslik, fanning barcha mustaqil tarmoqlari singari, boshqa fanlar bilan aloqada yashaydi, rivojlanadi. Bu xil aloqa davomida adabiyotshunoslik boshqa fanlardan nimalarnidir oladi, ularga nimalarnidir beradi.

Adabiyotshunoslikning boshqa fanlar bilan aloqasi haqida gapirganda, avvalo, uning tilshunoslik bilan aloqasi xususida to`xtalish lozim. Badiiy adabiyotning materiali so`z, adabiy asar esa so`zlardan tarkib topuvchi matndir. Badiiy matn esa, ravshanki, til qonuniyatlari asosida tarkib topadi. Til qonuniyatlarini bilishlik matnning qurilishi, tagma'nolari, ishlatilgan stilistik figuralarning estetik qimmati haqida fikr yuritishda juda muhim. Odatda badiiy matn tilini o`rganishga qaratilgan ishlarni adabiyotshunoslik va tilshunoslik chegarasidagi ishlar deb qaraladi. Biroq bunda biz chegarani aniq olishimiz kerak. Gap shundaki, adabiyotshunoslik tilshunoslik yutuqlariga tayanib tasvir vositalarining estetik tomonlarini o`rgansa, tilshunoslik til qonuniyatlarini o`rganishni o`ziga maqsad qiladi. Ya'ni, tilshunos uchun badiiy matn material bo`lsa, adabiyotshunos uchun maqsad sanaladi. Tilshunoslik bilan adabiyotshunoslik aloqalari yana bir jihatdan muhim. Tilshunoslik kishilar orasidagi muloqot vositasi bo`lgan tilni o`rgansa, adabiyotshunoslik ijodkor va o`quvchi orasidagi badiiy muloqot vositasi bo`lgan badiiy asarni o`rganadi. Muloqot qonuniyatlarining mushtarakligi esa adabiyotshunoslikning qator muammolarini til qonuniyatlari bilan qiyosan o`rganish va o`rgatish imkoniyatini ochadi. Adabiyotshunos o`z faoliyatida badiiy nutq shakllari, ritmi, intonatsiya, she'r sintaksisi, ekspressivlikni oshiruvchi vositalar kabi qator tushunchalarga duch keladiki, bularning tilshunoslik ilmidagi talqinini bilgan adabiyotshunosning izlanishlari, albatta, samaraliroq bo`ladi. Keyingi davr adabiyotshunosligida paydo bo`lgan "struktural adabiyotshunoslik", "semiotik tahlil" kabi tushunchalar bevosita tilshunoslik yutuqlari asosida yuzaga kelgandir.

Adabiyotshunoslikning tarix fani bilan ham uzviy aloqasi bor. Ma'lum bir davr adabiyoti yoki o`tmishda yaratilgan konkret asarni

tadqiq etayotgan adabiyot tarixchisi o`sha davr ijtimoiy-tarixiy hodisalarini o`rganmog`i shart, aks holda u o`rganilayotgan davr adabiyotida kuzatilgan hodisalar mohiyatini ham, tahlil qilinayotgan asarning mohiyatini ham to`la anglay olmaydi.

Adabiyotshunoslik san'atning umumiy qonuniyatlarini o`rganuvchi estetika fani bilan ham mustahkam aloqadadir. So`z san'ati sifatida badiiy adabiyot san'atning umumiy qonuniyatlari asosida yashashi, uning boshqa san'at turlari bilan aloqada ekanligi adabiyotshunosdan estetika fani yutuqlaridan xabardor bo`lishni taqozo qiladi.

Adabiyotshunoslikning falsafa fani bilan aloqasi haqida gapirganda, avvalo, yirik san'atkorlarning hammasi ham o`ziga xos faylasuf ekanligi, yirik badiiy asarlarda muallifning olamu odam haqidagi qarashlari tizimi (badiiy konsepsiya) - badiiy falsafasi ifodalanishini e'tiborda tutish lozim. Dunyoqarashi muayyan falsafiy ta'limot ta'sirida shakllangan ijodkor asarlarining mazmun-mohiyatini anglash uchun adabiyotshunos o`sha falsafa asoslaridan xabardor bo`lmog`i lozimdir. Aytaylik, islom falsafasi asoslarini, tasavvuf falsafasini bilmasdan turib mumtoz adabiyot tarixini o`rganish, undagi ko`plab asarlarni talqin qilish maholdir. Yoki, masalan, XX asr Yevropa adabiyoti namunalarini o`rganganda freydizm, ekzistensializm kabi ta'limotlardan xabardor bo`lish talab qilinadi.

Adabiyotshunoslik psixologiya fani bilan ham o`zaro aloqada bo`ladi. Badiiy asarda tasvirlangan inson ruhiyatini anglash, badiiy ijod psixologiyasi, badiiy asarni qabul qilish jarayonining ruhiy mexanizmlarini yaxshi tasavvur qilish uchun adabiyotshunosga psixologiya fanining yutuqlari juda katta yordam beradi. Ayni paytda, badiiy adabiyot psixologiya faniga ilmiy tadqiqotlar uchun boy material beradi.

Yuqoridagilardan ko`rinadiki, adabiyotshunoslik boshqa fanlar bilan uzviy aloqada rivojlanadi. Chinakam adabiyotshunos bo`lib yetishish, uning yutuqlaridan boxabar bo`lish va ortda qolmaslik uchun sizdan atroflicha keng bilim egasi bo`lishlik talab etiladi.

## Tayanch tushunchalar:

*adabiyotshunoslik,*
*adabiyotshunoslikning predmeti*
*adabiyotshunoslikning vazifalari*
*adabiyotshunoslikning maqsadi*
*adabiyot tarixi*
*adabiy tanqid*
*adabiyot nazariyasi*
*matnshunoslik*
*manbashunoslik*
*bibliografiya*

## Savol va topshiriqlar:

*1. O`zingiz bilan o`zingiz bahslashishga bir urinib ko`ring: avvaliga "Adabiyotshunoslik ham ilm bo`libdimi? Xo`sh, u o`rganayotgan masalalar, chiqarayotgan xulosalar nimagayam kerak bo`lardi?" qabilidagi da'voni asoslashga harakat qiling. Bo`ldimi? Endi bu da'voni asosli inkor qiling.*

*2. Adabiyot tarixi masalalariga bag`ishlangan qaysi asarlarni bilasiz? Maktabda olgan ma'lumotlaringizni eslang.*

*3. Adabiyotshunoslikning asosiy tarkibiy qismlari orasidagi o`zaro bog`liqlik, uzviy aloqani tushuntirib bering.*

*4. "Tanqidchi" deganda kimni tushunasiz? Tilimizdagi "tanqid qilmoq" fe'li, masalan, "birovni tanqid qilmoq" bilan "badiiy asarni tanqid qilmoq" tushunchasi orasida farq qanday?*

*5. "Matnshunoslik faoliyati adabiyotshunoslik, tilshunoslik va tarix fanlari kesishgan nuqtada kechadi" degan fikrni qanday tushunasiz? Terminlar lug`atidan "paleografiya", "arxeografiya" terminlarining ma'nosini daftaringizga yozing.*

## Adabiyotlar:

1.Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 1-жилд. А-Бешбалиқ.- Т.,2000

2. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи.-Т.: Ўзбекистон,1995

3. Болтабоев Ҳ. Фитрат - адабиётшунос.-Т.:Ёзувчи,1998

4. Мирзаев Т. Миллий истиқлол мафкураси ва ўзбек ада-

биётшунослиги // Ўзбек тили ва адабиёти.-1994.-№3.-Б.3-6
5. Болгабоев Ҳ. ХХ аср ўзбек адабиётшунослиги.-Шарқ юлдузи.-1995.-№11
6.Сувонкулов И. Мумтоз адабиётни ўрганиш мезони.-Мулоҳот.-1995.-№3.-Б.25-27
7. Йўлдошев Б. 60-70-йиллар адабий танқидчилиги тарихига бир назар.- Шарқ юлдузи.- 1999.- №6.- Б.153-155
8. Мўминова Н. Адабиёт назариясидан илк қўлланма // Ўзбек тили ва адабиёти.-1999.-№4.-Б.56-57
9. Қаҳрамонов Қ. Адабий танқиднинг методологик асослари // Ўзбек тили ва адабиёти.-2006.-№2.-Б.3-9
10. Литературный энциклопедический словарь.-М.,1987

# Badiiy adabiyotning ikkiyoqlama mohiyati

**Badiiy adabiyot haqida adabiyotshunoslikdagi bahslar to`g`risida. Badiiy adabiyot ham ijtimoiy ong, ham san'at sohasi sifatida. Badiiy adabiyotning ijtimoiy tabiati.**

XX asr boshlarida ulug` yurtdoshimiz Cho`lpon "Adabiyot nadir?" degan savolni o`rtaga tashlagan va shu nomli maqolasida unga baholi qudrat javob izlagan edi. Asrimizning o`rtalarida ulug` fransuz yozuvchisi va adabiyotshunosi J.P.Sartr ham xuddi shu nomli maqola bilan chiqqan hamda ayni shu savolga o`zicha javob bergan edi. Agar biz diqqat bilan kuzatsak, insoniyat ongini tanigandan beri ushbu savol u yoki bu tarzda muntazam qo`yilib kelishiga guvoh bo`lamiz. Qizig`i shundaki, bu savolga har bir davr o`zicha javob beradi, boz ustiga, bir davrda yashayotgan odamlarning javoblari-da bir-biridan jiddiy farqlanadi. Tugal va uzil-kesil javob berilishi mumkin bo`lmagan "adabiyot nadir?" savolining hozirgi kunda ham kun tartibida turgani tabiiy. Bugungi kunda mazkur savol tegrasidagi bahslar "adabiyot san'atmi yoki ong sohasimi", "adabiyot ijtimoiy bo`lishi kerakmi yoki yo`qmi", "adabiyot ommaviy bo`lishi kerakmi yoki elitarmi" kabi asosiy masalalarni o`z ichiga oladi.

Biz o`zimiz bilishni istagan narsa haqida tugal hukm chiqarishga moyilmiz, oxirigacha tugal anglab bo`lmaydigan, oxirigacha muayyan ta'rif-u qoidalar asosida tushuntirib bo`lmaydigan murakkab hodisalar mavjudligini tan olgimiz kelmaydi. Holbuki, mavjud narsa-hodisalarning aksariyati, jumladan, adabiyot ham, ana shunday murakkab, ziddiyatli tomonlarni o`zida jam etgan hodisa sanalishi kerak. Yuqorida qo`yilgan savollardan birinchisiga - "adabiyot san'atmi yoki ong sohasimi" degan masalaga to`xtalsak, bu narsa ancha ravshan ko`rinadi.

Keyingi yillarda sho`ro davrida o`ta yalang`och ijtimoiylashgan adabiyotga, uni ommani kommunistik ruhda tarbiyalash va sh.k. maqsadlarga bo`ysundirish amaliyotiga aks ta'sir tarzida adabiyotni "sof san'at" sifatida tushunish, unda faqat san'at hodisasinigina ko`rish tamoyili kuzatiladi. Holbuki, adabiyotda faqat vositani

ko`rishlik qanchalik xato bo`lsa, unda "sof san'at"nigina ko`rish ham shunchalik xatodir. "Sof san'at" tarafdorlari adabiyotning ijtimoiy ong sohasi ekanligini inkor qiladilar, juda insof qilganlari adabiyotning bu jihatiga e'tiborsizroq, ko`z yumib qaraydilar. Biz aql va hisni bir-biriga ko`pincha zid qo`yamiz, holbuki, bu narsa vujudimizda aql va hisning bir paytda mavjud bo`lishiga, ikkisining birlikda inson ruhiyatini tashkil etishiga xalaqit bermaydi. Bas, nega endi inson ruhiy faoliyatining mahsuli bo`lgan adabiyot ularning ikkisini o`zida jam qilolmas ekan?!

Bu masalani badiiy ijod tabiatidan kelib chiqib tushunish va tushuntirish o`ng`ayroq ko`rinadi. Adabiyotning ilk namunalari sanaladigan asotir(mif)larni, afsonalarni esga olaylik. Axir, "Avesto"dagi rivoyatlar yoxud qadim yunon yoki misr afsonalari tabiatni, insonning paydo bo`lishi, uning o`limi sirlari va sh.k. muammolarni bilishga intilish natijasi emasmi? Albatta, hozirgi insonning tafakkur darajasi ham, adabiyot va san'atning rivojlanish darajasi ham ulardan ko`z ilg`amas darajada uzoqlashdi. Lekin badiiy ijodga turtki beradigan birlamchi omil hamon bilish ehtiyoji bo`lib qoldi. To`g`ri, keyingi davrlarda yaratilgan asarlarda doim ham ijodkor bilishga intilayotgani asotirlardagi kabi ravshan sezilmasligi mumkin, lekin uning yaratilishiga bevosita mana shu ehtiyoj turtki bergan. Deylik, bir ijodkorni jamiyatning mavjud holati yoki rivojlanish tamoyillarini bilish (ko`proq romanlarda), boshqa birovini o`zni anglash orqali Haqni tanish (tasavvuf she'riyati), tag`in birini qalbidagi kechinmalarini (ya'ni, o`zini) anglash va shunga o`xshash umumiy nomi BILISH ataluvchi ehtiyoj ijodga undaydi. Faqat shunisi borki, keyingi davrlarda yaratilgan asarlarda bilish ehtiyojining ravshan sezilmasligi ijodkor tarafidan anglangan narsaning asarda boshqacha yo`sinlarda ifodalanishi bilan izohlanishi mumkin. Deylik, ijodkor o`zi anchadan beri yecholmay kelayotgan, o`zi anglashga intilayotgan masalaning yechimini tabiat manzarasida, hayotdagi biron bir holatda, hodisa va shu kabilarda ko`rishi, ya'ni o`sha narsada hikmat·ko`rishi-da mumkin. Ijodkor o`z asarida o`sha narsani (manzara, holat, hodisa va sh.k.) aks ettirishning o`zi bilanoq ehtiyojni qondiradi. Qatag`on davrida insonning qadrsizlangani, butun boshli jamiyatning totalitar tuzum oldidagi ojizligi-yu kishilarning o`zgalar fojiasiga tomoshabin bo`lib turgani haqida o`ylagan va azob chekkan A.Qahhor "O`g`ri"da

tasvirlangan voqeada, mustabid tuzum sharoitidagi ijodkor qismatini Oybek "Na'matak"dagi manzarada ko`rgan bo`lsa ne ajab?! Aytmoqchimizki, shu asarlarni yaratish bilan har ikki ijodkor ruhiyatida paydo bo`lgan bilish ehtiyoji qondirildi. Zero, ijod onlarida har ikkisi ham o`zini o`ylatgan masalani o`zicha hal qildi, muayyan bir to`xtamga keldi. Albatta, bu asarlarni har birimiz o`zimizcha tushunamiz, sababki, biz ulardagi obrazlar tilini o`zimizcha mantiq tiliga ko`chiramiz - anglaymiz. Biroq bu narsa asarning yaratilishiga turtki bo`lgan bilish ehtiyojining genetik jihatdan ijtimoiy xarakterga egaligini inkor qilolmaydi. Badiiy ijodga turtki beruvchi bilish ehtiyojining turli sath va navdagi ijtimoiy munosabatlar asosida vujudga kelishi badiiy asarning, demakki, badiiy adabiyotning ham genetik jihatdan ijtimoiy xarakterga egaligidan dalolatdir. Boshqa bir muhim tomoni shuki, har ikki adib o`zlari yaratgan badiiy obrazlar vositasida bilibgina qolmadi, ikkisi ham o`zining orzu-armonlarini, his-tuyg`ularini, - bir so`z bilan aytganda, - o`z idealidan kelib chiqqan hissiy munosabatini (va shu yo`sin bilvosita o`z idealini) ifodaladi. Biroq hissiy munosabatni yoki badiiy bilish jarayonida anglangan haqiqatni ochiqdan-ochiq ifodalash shart emas. Boz ustiga, hissiy munosabatning ochiqdan-ochiq ifodalanishi "nasihatgo`ylik", anglangan haqiqatning ochiqdan-ochiq ifodalanishi "aqllilik" tomon tortib ketishi mumkin. Shuning uchun, masalan, "O`g`ri"da A.Qahhor "xolis kuzatuvchi" mavqeida turadi: qalbini jumbushga solgan voqeaning, holatning suratini chizish bilan kifoyalanadi. Mahorat bilan tasvirlangan holat tasavvurida jonlangan onlarda (hikoyani o`qish jarayonida) o`quvchi adibning (ijod onlaridagi) his-tuyg`ularini qalbdan kechiradi. Biroq yozuvchi ijod onlarida qay muammoni badiiy idrok etishga intilgani doim ham ko`zga tashlanavermaydi. Buning hech bir ajablanarli joyi ham yo`q: badiiy asar arifmetik, fizik va yo boshqa sh.k. masala emaski, unda konkret shartlar ko`rsatib qo`yilsa. Shunga qaramay, matnda doim ham aks etmagani holda ham bilish ehtiyoji badiiy ijodga turtki beruvchi asosiy omil bo`lib qolaveradi.

Misolga olingan har ikki asarda ham bir narsaning mohiyati boshqa narsa orqali anglanayotganiga shohid bo`layotirmiz. Har ikki ijodkor ham o`zlarini o`ylatgan muammolarni anglash uchun hayotga aynan taqlid qilgani, hayotdan nusxa ko`chirgani yo`q.

Zero, bir narsaning mohiyatini ikkinchi narsada ko`rish uchun aqlning o`zi kamlik qiladi, buning uchun ijodkorda avvalo san'atkorona nigoh, san'atkorga xos "qalb ko`zi" bo`lishi lozim. Ya'niki, adabiyotdagi bilish fandagidek ratsional bilishgina emas, unda aql bilan barobar his, sezgi (intuitsiya) kabi unsurlar ishtiroki ham kattadir (shuning uchun ham aqlli odamlarning bari ham san'atkor bo`lavermaydi, bo`lolmaydi). Sirasi, atrofdagi narsa-hodisalarda ayricha hikmat ko`rishga qobil, kuzatuvchan, zukko kishilar ham oz emas. Biroq ularning hammasini ham san'atkor demaymiz, nari borsa "shoirtabiat", "zukko" deya ta'riflaymiz. Ulardan farqli o`laroq, san'atkor narsaning mohiyatini ochuvchi boshqa narsani ko`ribgina qolmaydi, uni o`zining tuyg`u-fikrlarini ifodalashga muvofiq tarzda qayta yaratadi (szo`lashuvda, hatto ilmiy adabiyotlarda ham buni ko`pincha mohiyatga nomuvofiq ravishda "tasvirlaydi" deb aytiladi) va mana shu qayta yaratish jarayoni IJODdir. Ruhning alohida va betakror holati bo`lmish ijod onlarida san'atkorga o`zi izlagan mohiyat ayon bo`ladi, ya'ni bilish ehtiyoji faqat ijod jarayonidagina qondiriladi. San'atkorning ijod onlaridagi holati, uning zo`riqib ishlayotgan ongi-yu jumbush urgan qalbi esa asar matnida muhrlanadi. Modomiki badiiy ijod bilishga qaratilgan jarayon ekan, demak, badiiy adabiyot ham ongga aloqador hodisa, faqat bunda bilishning san'atga xos yo`lidan boriladi. Bungacha aytilganlarga tayanib, adabiyot ikkiyoqlama hodisa, u san'atga ham, ijtimoiy ongga ham birdek aloqadordir degan xulosaga kelish mumkin.

Adabiy bahslarda tez-tez ko`tarilib turgan "adabiyot ijtimoiy bo`lishi kerakmi yoki yo`qmi" masalasi ham sho`ro davri adabiy siyosati ta'sirida yuzaga keldi, o`tkirlashdi. Adabiyotning ijtimoiy ekanligini inkor qilish ma'qul bo`lmaganidek, uning individual-shaxsiy hodisa ekanligini ham inkor etib bo`lmaydi. Bu da'vo faqat murosa ilinjida, bahsda oraliqni - eng xavfsiz mavqeni egallash ilinjida aytilayotgani yo`q. Mazkur savolga javob berish uchun biz adabiyotning predmeti masalasiga to`xtalishimiz zarur.

Adabiyotshunoslikka oid asarlarda, darsliklarda "badiiy adabiyotning predmeti - inson" deb ko`rsatiladi. Biroq mazkur fikrni tor tushunish, uni mutlaqlashtirish unchalik to`g`ri bo`lmaydi. Chunki adabiyot insonni alohida (izolyatsiya qilingan holda) emas, balki jamiyat, tabiat (bir so`z bilan aytganda -

borliq) bilan uzviy aloqada o`rganadi. Zero, insonning o`zini ulardan holi, izolyatsiya qilingan holda tasavvur etib bo`lmaydi, inson tabiatan ijtimoiy hodisadir. Modomiki adabiyotning predmeti ham, uning yaratuvchisi ham inson ekan, adabiyotning ijtimoiy bo`lmasligi mumkin emas. Nima uchun asar yoziladi, nima uchun ijodkor asarni yozishga kirishadi? Axir kundalik turmushda duch kelgan odamlar, hodisalar uning qalb qozonida, aql-idrokida qaynamadimi, uni yozmasa bo`lmaydigan holatga keltirib, qo`liga qalam olishga majbur qilmadimi? Demak, xohlasak-xohlamasak, genetik jihatdan adabiyot ijtimoiy hodisa ekan. Biroq yaratilishi jihatidan, dunyoga munosabat, o`sha dunyo tufayli paydo bo`lgan hissiyotlar, fikrlar nuqtayi nazaridan tom ma'noda shaxsiy hodisadir.

Ma'lum bo`ladiki, badiiy asarda ijtimoiylik va shaxsiylik qorishiq holda zuhur qilar ekan, faqat bu o`rinda ijtimoiylik va shaxsiylik nisbati har bir konkret asarda turlicha bo`lishini, turlicha zuhur qilishini e'tiborda tutish lozim bo`ladi. Deylik, ijtimoiylik darajasi epik va lirik asarlarda jiddiy farqlanadi, ba'zan lirik asarda ijtimoiylikdan asar ham yo`qday ko`rinadi. Ayrimlar, xususan "sof san'at" tarafdorlari ayni shu holni mutlaqlashtirmoqchi bo`ladilar, she'riyat faqat ko`ngil ishi bo`lishi kerak degan gaplar eshitiladi. Xo`sh, insonning ko`nglidagi tuyg`ular, iztirobu quvonchlarning o`zi kelib chiqishi jihatidan ijtimoiy emasmi? Misol tariqasida lirik qahramonning muayyan bir holati, kayfiyatigina qalamga olingan bir she'rni olib ko`raylik:

Bahor kunlarida kuzning havosi,
Tanimni junjitar oqshomgi shamol.
Nega muncha g`amgin nayning navosi,
Nega qalbim to`la o`kinch va malol?
Barglar orasiga tinmasdan sira,
Oshno yulduzlardan to`kiladi nur.
Bilmayman qiynaydi qaysi xotira,
Titroq yulduz kabi muzlagan shuur.
Mag`lub bahodirning nayzasi misol,
Ma'yus egiladi terak uchlari,
Barglar soyasida o`ynaydi behol
Uyqudagi qizning bedor tushlari.
Atrofimda yotar g`arib bir viqor,
Bilmam, nega o`chdi qalbim safosi.

Nima ham qilardim, na ilojim bor,
Bahor kunlarida kuzning havosi.

Ko`rib turganimizdek, she'rda tabiat manzarasi tasvirlanadi va shu asosda mahzunlik kayfiyati ifodalanadi. Biroq "bahor kunlarida kuz nafasining esish"idan kelgan mahzunlik - obraz, mana shu holatning yuzaga kelish sabablari o`zgacha bo`lishi ehtimoldan yiroq emas. Mazkur she'r 1967-yilda yaratilgan edi. Nechun endi A.Oripov bahor kunlaridagi kuz havosi haqida gapiradi? Gap shundaki, she'r yozilgan payt 50-yillar oxiridan jamiyat hayotida kuzatilgan uyg`onish, nisbiy erkinlikning 60-yillar o`rtalaridan qaytadan bo`g`ila boshlagan davriga to`g`ri keladi. A.Oripov jamiyatning bir a'zosi sifatida, erkka tashna ijodkor sifatida bu holdan iztirob chekadi, azoblanadi. Hassos shoir o`zini qiynagan DARD suratini tabiat manzarasida ko`radi, "bahor kunlaridagi kuz havosi"dan kelgan iztirobini, alam-u o`kinchini ifodalaydi. Jamiyatning ko`zi ochiq a'zolarini iztirobga solgan bu ijtimoiy dard shoirning shaxsiy dardiga aylangan, dardning shaxsiylanish darajasi shunchalarki, biz she'rni "ko`ngil she'riyati" deyishga-da, uni "sof san'at" namunasi sifatida baholashga-da moyilmiz.

Ijtimoiy dard ijodkorning shaxsiy dardiga aylanmasa, ijodkor o`sha dardni chinakamiga qalbidan kechirmasa, biz yuqorida aytgan "yalang`och ijtimoiylashuv" yuzaga keladi. Sho`ro davri adabiyotining eng katta fojiasi ham shu edi. Totalitar tuzum barchaning birdek o`ylashini taqozo etgandiki, bu narsa jamiyatda shaxs maqomining susayishi, jumladan, ijodkor shaxsining emirilishiga olib keldi. Natijada ko`plab asarlarda ijtimoiy dard ijodkorning qalb qozonida obdon qaynamasdan, faqat rasmiy mafkuraning badiiylashtirilgan ifodasi bo`lmish shiorbozlikka to`la she'rlar, hayotni rasmiy mafkura ko`zi bilan ko`ruvchi, tasvirlovchi va baholovchi (garchi "sotsialistik realizm" namunasi sanalsa-da, realizmdan tamomila yiroq) epik asarlar yaratildi. Bu narsa adabiyotning tussizlashuviga, ijodiylikning inqiroz topishiga olib keldi. Adabiyotdagi tussizlikning boisi shuki, sho`ro adabiyotidagi (ayniqsa, 30-60-yillardagi) ko`plab asarlarda ijtimoiylik bo`lgani holda ijodkor shaxsi yo`qolgan, natijada ular bir-biridan shakliy xususiyatlari bilangina farqlanadigan, go`yo rang-barang qog`ozlarga o`rab berilgan bitta matohga aylanib qolgandi. Albatta, chinakam iste'dod bunday bo`g`iq sharoitga

ko`nikolmaydi, isyon qiladi. Shu bois ham hatto mustabid tuzum zug`umi kuchaygan davrlarda ham katta iste'dodlarning asarlaridagi ayrim o`rinlarida ijodiy "men" bo`y ko`rsatib, asarga jonlilik baxsh etib turadi.

60-yillardan boshlab esa adabiyotimizda ijodiy "men"ning isyoni kuchliroq namoyon bo`la boshladi, dunyoni o`zicha tushunish va baholashga intilish boshlandi. Shunga qaramay, bular adabiyotimizning umumiy holatini, "havosi"ni belgilay olmas, zero, rasmiy mafkura rag`bati bilan kuchaygan "yalang`och ijtimoiylik" bir tushovga aylanib qolgan va dadil olg`a bosishga imkon bermasdi. Tabiiyki, bularni e'tiborga olgan holda ko`pchilikning adabiyotdagi ijtimoiylikdan bezganlik kayfiyatini tushunsa bo`ladi, biroq mafkura tazyiqi bilan "yalang`ochlangan ijtimoiylik"ni deb adabiyotning tabiatiga xos bo`lgan ijtimoiylikni inkor qilish to`g`ri bo`lmaydi.

Yaqin yillardagi va qisman hozirda ham bahslarga sabab bo`lib turgan masalalardan yana biri "adabiyot qanday bo`lishi kerak?" degan savol tegrasida aylanadi. Mazkur bahsda tomonlarning biri "adabiyot ommaviy bo`lishi kerak" degan fikrni, ikkinchisi "adabiyot xos kishilarga mo`ljallangan (elitar) bo`lishi kerak" degan fikrni oldinga suradilar. Ikkinchi tomonning ommaviylikka qarshi turgani adabiyotning jo`nlashuvidan norozilik bilan, birinchi tomonning xoslargagina mo`ljallangan adabiyotga qarshiligi bu holda adabiyotning jamiyatdagi ahamiyati susayadi deb hisoblashi bilan izohlanadi. Bir qarashda bu bahs nihoyasizdek, uni hal qilib bo`lmaydigandek ko`rinishi mumkin. Biroq, unutmaslik kerakki, muammoning yechimi bahs bir tomonga hal bo`lganidagina topiladi deyishlik xato, ko`p hollarda bahsning yechimi murosada bo`ladi. Zikr etilgan bahsning yechimi ham, bizningcha, murosadadir. Shu o`rinda murosaning foydasiga ayrim fikrlarni qayd etib o`tish joiz.

Birinchisi. Hammaga ayonki, badiiy adabiyotni iste'dodlar yaratadi. Iste'dod esa ommadan ko`ra tiyranroq qalb ko`ziga egaligi, tafakkur darajasining undan yuqoriroq ekani bilan farqlanadi. Baski, chinakam iste'dod yaratgan asarning darajasi ham ommadan yuqoriroq bo`lmog`i tabiiy va shunday bo`lishi kerak ham. Ikkinchi tomondan, shu adabiy-madaniy zaminda yetishgan iste'dodning ommadan ko`z ilg`amas darajada uzoqlab ketishi ham mahol, shu bois ham "atayin ommaga moslab yozish" degan da'vo yo

yolg`on, yo iste'dodsizlikni xaspo`shlash uchun bahonadan boshqa narsa emas. Demak, bahsdan chiqadigan birinchi xulosani "bizga chinakam iste'dodlar, iste'dod bilan yozilgan asarlar kerak" tarzida ifodalash mumkin.

Ikkinchisi. Badiiy asar juda murakkab hodisa, konkret asarni hammaning birdek tushunishi, birdek suyushi va unga birdek qimmat berishi mumkin emas. Aytaylik, o`quvchi bir paytlar o`qiganda deyarli e'tiborini tortmagan she'r vaqtiki kelib uni yondirib yuborishi hech gap emas. Shuningdek, shu o`quvchining yuragiga o`t yoqqan she'rga boshqa o`quvchi mutlaqo e'tiborsiz qarashi-da mumkin. Nihoyat, badiiy asar tubsiz ummon misoli, yuzasida yurgan nari borsa mavjlaru jozib qudratni ko`rar, biroq uning tubida olam-olam sir-sinoatlar yashirin, uning tubida-da butun boshli bir hayot kechadi. Kimdir bu ummonning yuzasidagina yuradi, kimdir sayozroq, kimdir chuqurroq sho`ng`iydi, baski, iste'dod bilan yaratilgan badiiy asar bir paytning o`zida turli toifalarga - ham ommaga, ham xoslarga mo`ljallangan bo`ladi. Demak, iste'dod bilan yozilgan asardan hammaga tushunarli bo`lishlikni talab qilish talab qiluvchidagi didning darajasini ko`rsatadi, xolos.

Uchinchisi. Kishilarda didning turlicha ekanligi fakt, bu hol bilan faqat murosa qilish mumkin xolos. Besh qo`l barobar emas, kimdir chuqur ruhiy tasvirga boy asarni, kimdir intellektual jihatdan yuksak asarni, kimdir ko`ngilochar asarni, kimdir detektiv, kimdir jangari asarlarni suyadi. Xohlasak xohlamasak, adabiyot maydonida ham raqobat bor. Agarki hozir yengil-yelpi asarlarga qiziqish kuchaymoqda ekan, bu yuksak didli adabiyotning aybi. Demak, bahslashish emas, jizzakilik qilish, ommaning didsizlashayotganidan zorlanish emas - chinakam adabiyotni, badiiyati yuksak asarlarni yaratmoq kerak.

Badiiy adabiyot - inson faoliyatining mahsuli. Inson faoliyati esa keng va serqirradir. Inson faoliyati bir-biriga bevosita yoki bilvosita bog`liq bo`lgan "mehnat faoliyati", "ruhiy faoliyat", "estetik faoliyat" kabi jihatlarni o`z ichiga oladi. Boz ustiga, ruhiy faoliyatning o`zi "aqliy", "hissiy", "ruhoniy" faoliyat qirralarini namoyon etadi. Badiiy adabiyot insonning go`zallik qonunlari asosidagi ijodiy-ruhiy faoliyati mahsulidir. Shunday ekan, badiiy adabiyotni ta'riflashda biryoqlamalikka yo`l qo`yish, uni faqat ijtimoiy ong yoxud faqat san'at hodisasi sifatida tushunish

predmetning mohiyatini jo`nlashtiradi, bizni uning tabiatini anglashdan uzoqlashtiradi.

Yuqorida biz badiiy adabiyot haqida, uning tevaragidagi bahslar xususida so`z yuritdik. Keyingi fasllarda badiiy adabiyot mohiyati haqida kengroq to`xtalamiz. Biroq shuni unutmangki, biz sizga uning mohiyatini anglashga yo`nalish beramiz, tabiiyki, retsept emas. Ya'ni, mohiyat haqida tasavvurga ega bo`lgach, siz bu xil bahslarda o`z mavqeingizni o`zingiz mustaqil ravishda belgilashingiz kerak bo`ladi.

## Tayanch tushunchalar:

*"sof san'at"*
*bilish ehtiyoji*
*shaxsiylik*
*ijtimoiylik*
*ommaviy va elitar adabiyot*
*badiiy adabiyotning predmeti*

## Savol va topshiriqlar:

1. Adabiyotni "sof san'at" sifatida tushunishga moyillikning kuchayish sabablari nimada? Buni misollar yordamida tushuntirib bera olasizmi? "Soxta ijtimoiylik" va badiiy adabiyotning tabiati bilan bog`liq ijtimoiylik orasidagi farq nimada?

2. Badiiy adabiyotning tabiatan ijtimoiy bo`lmasligi mumkin emasligini qanday izohlaysiz? Agar o`zgacha fikrda bo`lsangiz, buni asoslab bering.

3. Badiiy adabiyotda ijtimoiylik va shaxsiylikning uyg`un namoyon bo`lishini konkret asar misolida tushuntirib bering. Siz misolga olgan asarda ijtimoiy dard shaxsiylanganmi? Buni izohlashga harakat qiling.

4. Cho`lponning "Adabiyot nadir?" maqolasini o`qib chiqing. Yosh shoir badiiy adabiyotning qaysi jihatlariga ko`proq e'tibor bermoqda? Buning sababi nimada deb bilasiz?

5. "Elitar adabiyot" vai "ommaviy adabiyot" tushunchalariga izoh bering.

## Adabiyotlar:

1. Э.Худойбердиев. Адабиётшуносликка кириш. Т.,1995
2. Фитрат. Адабиёт қоидалари. Т., 1995
3. Чўлпон. Адабиёт надир: (Адабий танқидий мақолалар, Чўлпон ҳақида хотиралар). Т., 1994.
4. Саримсоқов Б. Адабиётнинг ижтимоий табиати // Ўзбек тили ва адабиёти.-1995.-№2.-Б.46-52.
5. Ж.Турдимов. Лирик кечинма ва образлилик // Ўзбек тили ва адабиёти.-2000.-№5.-Б.19-21
6. Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества.-М.:Искусство,1986
6. Тэн И. Философия искусства.-М.,1996
7. Уэллек Р., Уоррен О. Теория литературы.- М.,1978.
8. Самосознание европейской культуры XX века.-М.,1991
9. Сартр Ж.П. Что такое литература? // Зарубежная эстетика и теория литературы XIX-XX вв. М., 1987. С.313-334

# Badiiy adabiyot ijtimoiy ong sohasi

***Inson faoliyati tushunchasi. Ruhiy faoliyat. Ijtimoiy ong tushunchasi. Badiiy adabiyotning ijtimoiy ong shakllari orasidagi o`rni va o`ziga xosligi. Badiiy adabiyotning jamiyat hayotidagi o`rni va vazifalari.***

Badiiy adabiyotning ikkiyoqlama mohiyati, uning bir tarafdan san'at hodisasi, ikkinchi tomondan ijtimoiy ong shakllaridan biri ekanligini aytib o`tdik. Endi nima uchun badiiy adabiyot ijtimoiy ong sohasiga mansub deyilishi, uning ijtimoiy ong shakli sifatidagi o`ziga xosligini ko`rib chiqish darkor.

Taniqli rus adabiyotshunosi A.Potebnya badiiy adabiyotga ta`rifini "eng umumiy tushuncha - inson faoliyati"[1] degan so`zlar bilan boshlagan edi. Bu bejiz emas, albatta. Zero, inson tomonidan yaratilgan narsalarning bari - faoliyat mahsuli, demak, birinchi galda "faoliyat" tushunchasiga to`xtalishimiz zarur bo`ladi. Inson faoliyati juda keng va serqirra bo`lib, quyida uning eng muhimlariga to`xtalib o`tamiz.

Mavjud jonzotlar ichida qadim ajdodlarimizgina tabiatda tayyor holda mavjud narsalarning, shart-sharoitlarning o`zi bilangina qanoatlanib yashamadilar. Jonivorlardan farqli o`laroq, ular tabiatni, mavjud narsalarni o`z talab-ehtiyojlariga muvofiq o`zgartirib yashadilar, zero, ular tirik qolish va naslni davom ettirish uchun shunga majbur ham edilar. Insonning yashash uchun tabiatni o`zgartirish jarayoni "mehnat" (amaliy faoliyat) deb nomlanadi. Inson azaldan o`zining amaliy faoliyatida tabiatni, atrof muhitni o`zgartirib keladi - o`ziga yashash uchun sharoit yaratadi, tirikchilik uchun oziq topadi. Tabiatni o`zgartirish jarayonida o`zgartiruvchi - insonning o`zi ham o`zgarib boradi, chunki amaliy faoliyat davomida u tajriba orttirib, atrof-muhitni tobora chuqurroq bilib boradi: insonning borliq haqidagi tasavvurlari boyib, ongi rivojlanib boradi. O`z navbatida, borliq haqidagi tasavvur va bilimlarning boyishi amaliy faoliyatning samaraliroq bo`lishiga xizmat qilgan. Ya'ni, o`sha paytlardayoq inson faoliyati ikkiga - amaliy (mehnat) va nazariy (ruhiy) faoliyat turlariga ajrala borgan. Aslida bu ikki faoliyat turi bir-biriga bog`liq va har qanday insonda ular baqamti

[1] Потебня А.А. Эстетика и поэтика.- М.,1976.- с.286

(faqat nisbati turlicha) kechadi. Biroq kishilik jamiyati taraqqiyoti davomida, mehnatning bo`linishi natijasida hozirgi zamon kishisi haqida, uning faoliyati haqida gapirganda biz ko`pincha "jismoniy mehnat" va "aqliy mehnat" degan faoliyat turlarini ajratamiz. Holbuki, bu o`rinda "ruhiy faoliyat" atamasining ishlatilgani ma'qul, chunki "aqliy mehnat" deb ataganimiz ruhiy faoliyatning bir qirrasi, xolos.

Haqiqatda ruhiy faoliyatning o`zi "aqliy" va "hissiy" qirralarga ega bo`lib, bu ikkisi tanganing ikki tomonidek, har vaqt bir-birini taqozo etadi. Zero, inson dunyoni bilishga intilarkan unga (konkret narsa-hodisaga) muayyan hissiy munosabatda bo`ladi, o`z navbatida dunyo uning hislariga ta'sir qiladi. Ikkinchi tomondan, ijtimoiy maxluq sifatida inson muloqot ehtiyojini, o`z hislarini ifodalash ehtiyojini tuyadi. Ya'ni, bu ehtiyoj ahamiyati jihatidan yashash va nasl qoldirish uchun tabiatni o`zgartirish ehtiyojidan aslo kam bo`lmagan tabiiy ehtiyojdir. Inson o`zining tabiat bilan munosabatlari natijasi o`laroq yuzaga kelgan eng ibtidoiy hislarini (qo`rquv, sevinch) ham, jinsdoshlari bilan munosabati natijasida tug`ilgan hislarini ham ifodalashga intilgan. Ibtidoiy odamning g`orga chizgan suratlarida, ritual marosimlarida ayni shu narsa ko`zga tashlanadi. Insonning hissiy faoliyati, tabiiyki, aqliy faoliyatga turtki bergani, o`sha hislarni anglashga, oxir-oqibat o`zini anglashga yo`naltirgani ham bejiz emas. Ya'ni, ruhiy faoliyatning predmeti ikkiga ajralmoqda: inson, bir tarafdan, o`zidan tashqaridagi olamni o`rganishga, ikkinchi tarafdan, o`zidagi "olam"ni anglashga intila boradi. Demak, ruhiy faoliyat tashqariga va ichkariga yo`naltirilgan bo`lishi mumkin ekan. Shu o`rinda amaliy va ruhiy faoliyat orasidagi eng muhim farqqa diqqat qilish lozim. Amaliy faoliyat voqelikdagi predmetni real o`zgartirishi bilan xarakterlanadi. Ya'ni, amaliy faoliyat jarayonida faoliyat yo`naltirilgan narsa o`zgarishga uchraydi. Ruhiy faoliyat davomida esa o`zgarish faqat ongda, tasavvurdagina yuz beradi. Agar shu xil o`zgartirish bo`lmaganida edi, ruhiy faoliyatni "faoliyat" deb atashlik mumkin bo`lmagan bo`lur edi.

Badiiy adabiyot - insonning ruhiy faoliyati mahsuli. Badiiy adabiyotni ruhiy faoliyat turlaridan biri deb atashga imkon beradigan narsa shuki, ijodkor o`zining "faoliyati" yo`naltirilgan predmetni (keng ma'noda borliqni) o`z ongida o`zgartiradi va badiiy obrazda aks ettiradi. Demak, "adabiyot dunyoni o`zgartiradi", degan gapni

aynan tushunishimiz xato bo`ladi. Zero, adabiyot real voqelikni bevosita emas, bilvosita - dunyoni o`zgartiruvchini, INSONni o`zgartirish orqali amalga oshiradi.

Yuqorida aytilganidek, ruhiy faoliyatning o`zi "aqliy" va "hissiy" qirralariga ega bo`lib, bu ikkisi har vaqt bir-birini taqozo etadi. Insonning borliq bilan munosabatini o`zaro aloqa sifatida tushunish to`g`riroq bo`ladi. Chunki borliqni bilish jarayonida inson unga muayyan hissiy munosabatda bo`ladi va, o`z navbatida, borliq ham uning hislariga ta'sir qiladi. Shuningdek, konkret masalani aqlan idrok etishga ojiz kishi uni hissiy idrok etishi mumkin, zero, inson ongidagi milliardlab hujayralarda asrlardan buyon to`planib kelayotgan informatsiya, qadim ajdodlarga xos bo`lgan va hozir go`yo konservatsiyalangan ruhiy imkoniyatlar yashaydi. Badiiy ijod jarayonida ong faoliyati nechog`li muhim bo`lsa, ongning ost qatlamida konservatsiyalangan holda yashovchi ruhiy imkoniyatlarning (подсознательное) ishtiroki ham ulkandir. Xuddi shu narsaga ulug` shoirimiz Cho`lpon o`n yetti yoshligidayoq e'tibor qilgan edi: "... muhit bo`shlig`inda bo`lgan qat'iy to`lqunning bir-biriga birlashmagidan har odamga har xil shodlik va yo ko`b achchiq ta'sir etmagindan odamning ko`nglida o`zi bilmasdan o`rnashub qolg`on va har vaqt, umrining oxiriga qadar saqlanaturg`on qayg`ulanmak va yo ko`krak kerib ko`b dam olurday oh urmaklar - hammasi ko`ngulda har xil rangda, har xil kayfiyatda to`lub yotqon adabiyot xosasindan sanalur".[1] Cho`lpon "ko`ngul" deb atayotgan narsa aslida ong osti qatlamlari(подсознательное)dan boshqa narsa emas. Yosh shoirning talqinicha, insonni umr bo`yi bezovta qiladigan va adabiyotning "xosa"si sanaladigan narsalar uning o`ziga sezilmagan holda ko`nglida o`rinlashib qoladi. Tuyqus xayolimizga kelib qolgan fikr, xulosani biz g`aybdan deb o`ylashimiz mumkin. Aslida esa u qachondir nimaningdir ta'sirida tug`ilgan va ongimizning olis burchaklarida mudroq holda yashab kelgan, endilikda, muayyan bir vaziyatda anglangan o`z fikrimiz, o`z xulosamizdir. Ijod jarayonini, ijod onlarida san'atkorning o`zi kutmagan kashfiyotlarga duch kelishini yoki o`zi qilgan kashfiyotni anglayolmay qolishini tush ko`rishga mengzash mumkin. Inson tushida o`zini kutayotgan narsani oldindan ko`rishi mumkin, ko`pincha bu narsalar ramzlar tarzida ko`rinadi, ularning mag`zini

[1] Чўлпон. Адабиёт надир.- Т.,1994, 35-бет.

chaqishga urinamiz. Holbuki, o`sha ramzlarning hosil bo`lishiga asos bo`lgan voqealar ishtirokchisi bo`lganmiz, o`y-fikrlarni ongdan, his-kechinmalarni qalbdan o`tkarganmiz. Endi esa, uxlagan chog`imizda ong ostki qatlami ishlagan, harakatga kelgan.

Inson - ijtimoiy maxluq deganlari bejiz emas. Zero, inson sifatida shakllanish uchun odamdan tug`ilgan bo`lishning o`zi kifoya emas. Inson dunyoga keltirgani holda insonlardan ayro yashagan odam inson sifatida shakllana olmaydi. Bunga hayotda ancha-muncha misollar bor. Shunga ko`ra, bizning ongimizdagi bilim va tasavvurlarning aksari vorisiy xarakterga ega. Ya'ni, bugungi kun chaqalog`ining ongida mavjud imkoniyatlar olis ajdodlar ongida mavjud imkoniyatlardan chandon balanddir, zero, unda asrlar davomida to`plangan informatsiya kodlangan holda mavjuddir. Bundan ko`rinadiki, shakllanish jihatidan ong ijtimoiy xarakterga ega, bizda mavjud bilimlar va tasavvurlar o`z ongimizning, miyamizninggina faoliyati bilan bog`liq emas.

Ijtimoiy ong deganda kishilik jamiyati taraqqiyotining muayyan bosqichida o`sha jamiyat a'zolarining ongida mavjud bo`lgan borliq (olam, odam, jamiyat) haqidagi bilimlar, tasavvurlarning jami tushuniladi. Ijtimoiy ong bevosita jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'rifiy taraqqiy darajasi bilan bog`liq bo`ladi. Aytaylik, ibtidoiy jamiyat kishisi bilan hozirgi zamon kishilari ongidagi olam va odam haqidagi bilimlar orasidagi farq yer bilan osmoncha.

Ijtimoiy ongni, ya'ni, dunyo haqidagi bilim va tasavvurlarni hosil qilish, boyitishga xizmat qiluvchi sohalarning bari ijtimoiy ong shakllari deb yuritiladi. Din, ilm-fan, san'at, badiiy adabiyot, axloq, huquq, siyosat, - bular bari ijtimoiy ong shakllari sanaladi. Kishilik jamiyati taraqqiyotining ma'lum bir bosqichida bu sohalarning qaysidir bittasi yetakchi mavqega ega bo`lishi, keyin yetakchilik boshqasiga o`tishi mumkin. Masalan, kishilik jamiyatining tongida insonlarning tabiat hodisalarini anglashga intilishi natijasida yuzaga kelgan miflar etakchi mavqega ega edi (aniqrog`i, miflar u davrda ijtimoiy ongning asosiy shakli edi). Dunyoning, inson va boshqa jonzotlarning paydo bo`lishi, hayot va o`lim sirlari, tabiat hodisalarining sodir bo`lishi kabi inson bilishga qiziqqan masalalar miflarda o`z ifodasini topgan. Albatta, miflar qadim ajdodlarimizning bu masalalar mohiyatiga yetmaganini ko`rsatadi, biroq miflarda ularning olam va odam

haqidagi bilimlari - ijtimoiy ongi akslangani ham ayon haqiqatdir. Keyinroq, antik jamiyatda falsafaning yetakchiligi kuzatilsa, o`rta asrlarga kelib ijtimoiy ong shakllari orasida din yetakchi mavqe egalladi. Zero, o`rta asrlarda olam va odam mohiyati diniy ta'limotlar asosida tushunildi va tushuntirildi. Insonning dunyo haqidagi bilimlarining chuqurlashuvi XYIII asrga kelib fanning yetakchiligini ta'minladi, endi ilmiy bilishning ahamiyati ortdi.

Ijtimoiy ong shakllarining keyingi davrlardagi, xususan, hozirgi holatiga nazar solsak, unda turlichalikka duch kelamiz. Zero, hozirda ularning bari parallel holda (umuman insoniyat miqyosida olsak, taraqqiyot darajasining turlichaligi bois mifologik tafakkurdan tortib to yuksak ilmiy bilishgacha) mavjud. Albatta, biz bu o`rinda insoniyatning ilg`orini, rivojlangan jamiyatlarni nazarga olishimiz to`g`riroq bo`ladi. Bu holda bilish jarayonida ijtimoiy ong shakllaridan bir qanchasi ishtirok etayotganiyu har birining o`z sohasi (fan, san'at, siyosat, huquq) borligiga amin bo`lamiz.

Ijtimoiy ong shakllari orasida badiiy adabiyot va san'at borliqni badiiy obrazlar vositasida idrok etishi bilan farqlanadi. Xususan, badiiy adabiyot so`z vositasida ish ko`radi. So`z esa universal bilish va ifodalash vositasi sanaladi. So`z vositasida ish ko`rgani uchun ham badiiy adabiyotning badiiy bilish imkoniyatlari anchayin keng: u hayotdagi turli muammolarni, uning turli jihatlarini badiiy tadqiq etish imkoniga ega.

Badiiy adabiyotning jamiyat hayotidagi o`rnini tasavvur qilish uchun u bajarayotgan ijtimoiy funksiyalar (vazifalar) nimalardan iborat ekanligini ko`rib chiqish lozim. Badiiy adabiyotning eng muhim vazifasi shuki, u insonni komillikka yetaklaydi, jamiyatni mukammallashtirishga xizmat qiladi. Yuqorida "badiiy adabiyot dunyoni o`zgartiradi" degan fikr xususida to`xtalgan edik. Darhaqiqat, badiiy adabiyot insonni (demakki, jamiyatni) o`zgartirish orqali dunyoni o`zgartiradi. Negaki, badiiy adabiyot real voqelikni aks ettiribgina qo`ymaydi, u ideal asosida fikrlaydi, voqelikni ideal asosida qayta yaratadi, chinakam san'at asaridagi badiiy hukm idealdan kelib chiqqan holda chiqariladi. Ideal esa, ma'lumki, o`zida mukammal inson, mukammal jamiyat haqidagi tasavvurlarni, orzu-intilishlarni mujassam etadi. Ijodkor sog`ingan ideal badiiy asar orqali o`quvchiga, o`quvchilarga ko`chadi va, bilingki, ideal sog`inchini o`ziga yuqtirgan o`quvchi endi o`zgargan

insondir. Inson(insonlar)dagi o`zgarish esa, tabiiyki, jamiyatdagi o`zgarishlarning asosidir. Demak, badiiy adabiyotning eng muhim vazifalaridan biri jamiyatni ideal asosida qayta qurishdan iborat ekan.

Mutaxassislar san'at, xususan, badiiy adabiyot haqida so`z borganda ularning polifunksionalligi, ya'ni, ko`p vazifalarni bajarishini ta'kidlaydilar. Quyida biz badiiy adabiyot ijtimoiy hayotda bajaruvchi vazifalarning ayrimlari xususida qisqacha to`xtalib o`tamiz.

Bilish (evristik) funksiyasi. Badiiy adabiyot borliqni badiiy bilish orqali bizning olam, odam va jamiyat haqidagi bilim va tasavvurlarimizni boyitadi. "Adabiyot - hayot darsligi", degan gap faqat chiroyli ta'rifgina emas, uning zamirida katta haqiqat yotadi. Zero, badiiy asarlar mutolaasi davomida biz inson qalbining chuqur puchmoqlariga kirib boramiz, uning turfa fe'l-atvori bilan tanishamiz, insonlar orasidagi murakkab munosabatlarni kuzatamiz, ularning tublik sabablarini his qilamiz. Badiiy adabiyot orqali o`quvchi o`zga insonlar tajribasi bilan o`rtoqlashadi, buning natijasi o`laroq u hayotga, insonlarga o`zgacharoq yondasha boshlaydi, chuqurroq tafakkur qiladi, fikrlash doirasi kengayadi. Bu esa, agar inson umrining qisqaligi, uning umri davomida bevosita ko`rish va his qilish imkoniyatining cheklangani e'tiborga olinsa, juda katta ahamiyatga molikdir. Zero, badiiy asarni o`qish davomida o`quvchi asar voqeligida yashaydi, asar qahramonlarining o`ylarini ongdan, hislarini qalbdan kechiradi. Ehtimolki, u o`z hayoti davomida o`sha tasavvurdagi olamda ko`rgandek taqdirlarga duch kelmas, unda tasvirlangandek holatlarga tushmas... - lekin boshqa olamda,. boshqa odamlar orasida yashagani, ular .ko`rganni ko`rgani, bilganni bilgani, his qilganni his etgani qolaveradi. Ya'ni, badiiy adabiyot bamisoli hayot ichidagi yana bir hayot, inson qisqa umri davomida ko`proq ko`rishi, his qilishi, anglashi uchun berilgan qo`shimcha imkoniyat, aytish mumkinki, qo`shimcha "umr"dir.

Badiiy-konseptual funksiya. Badiiy adabiyot hayotni, jamiyatning joriy holatini badiiy tahlil qilish orqali olam va odam haqida yaxlit badiiy hukm - badiiy konsepsiyani ishlab chiqishga intiladi. Bu jihati bilan badiiy adabiyot falsafaga yaqinlashadi. Falsafadan farq qilaroq, olam va odam konsepsiyasini ishlab

chiqishda badiiy adabiyot mantiq kategoriyalariga emas, ma'no serqirraligi bilan xarakterlanuvchi badiiy obrazlarga tayanadi. Jahon falsafiy tafakkuri Dante, Shekspir, Gete, L.Tolstoy, F.Dostoyevskiy, T.Mann, A.Kamyu singari o`nlab ijodkorlar fikrlari bilan boyigani, o`z vaqtida ulardan turtki olganligi shubhasizdir. Biz o`zining ko`lamli falsafiy mushohadaga moyilligi bilan tanilgan va e'tirof etilgan ijodkorlardan ayrimlarinigina sanadik. Haqiqatda esa badiiy konseptuallikka intilish iqtidor bilan yozilgan har qanday badiiy asarga xosdir. Xayyom ruboiylarini yo hazrat Navoiy dostonlarini, A.Qodiriy romanlari yo A.Qahhor hikoyalarini, O.Yoqubov nasri yo A.Oripov she'riyatini olasizmi - barida hayot, olam va odam haqidagi chuqur falsafiy mushohadalarga duch kelasiz, mualliflar mavjudlikning o`tkir masalalari yuzasidan chiqargan badiiy hukm-xulosalar bilan o`rtoqlashasiz.

Kommunikativ funksiya. Badiiy adabiyot shaxslararo, avlodlararo, millatlararo muloqotning amalga oshishiga xizmat qiladi. Badiiy asarni yaratish davomida ijodkor tasavvurdagi o`quvchi bilan muloqotga kirishsa, uni o`qish jarayonida o`quvchi ijodkor bilan muloqotga kirishadi. Muloqot jarayonida keng kitobxonlar ommasiga badiiy informatsiya yetkaziladi, bu esa o`quvchining bilim va tasavvurlar doirasini kengaytiradi, informatsiyaga bo`lgan ehtiyojini qondiradi. Badiiy adabiyot vositasida amalga oshuvchi muloqot qarshisida davriy yoki hududiy chegaralar mavjud emas: uning vositasida o`quvchi o`zidan bir necha asrlar ilgari yashagan shaxs bilan ham, o`zidan minglab chaqirim olisda yashovchi shaxs bilan ham muloqot qila biladi. Masalan, ko`p mutolaa qilgan hozirgi kitobxon olis ajdodlarining turmushi, fikrlash tarzi, orzu-intilishlari bilan ham, olis dengiz ortidagi xalqning turmushi, fikrlash tarzi, orzu-intilishlari bilan ham yaqindan tanish bo`la oladi.

Tarbiyaviy (didaktik) funksiya. Badiiy adabiyot shaxsni aqlan va ruhan kamolga yetkazadi, jamiyatning ma'nan tozarishi va yuksalishiga xizmat qiladi. E'tibor berilsa, deyarli barcha milliy adabiyotlar taraqqiyotining ilk bosqichlarida didaktik funktsiya oldingi planda turgani ko`riladi. Adabiyotning tarbiyaviy ahamiyatiga juda qadim davrlardan ayricha e'tibor berib kelinishi bejiz emas. Xususan, qadimgi yunon faylasufi Aflotunning "Davlat" asarida adabiyotning tarbiyaviy tomonidan qanday foydalanish kerak,

kimga, nimani va qanday o`qitish kerak degan masala keng qo`yilgan. Sharq xalqlarida ham yosh avlodni tarbiyalashda badiiy adabiyotdan keng foydalanilgan. Shu bois ham Sharq mumtoz adabiyotida "Guliston", "Bo`ston", "Qutadg`u bilik", "Hibatul haqoyiq", "Qobusnoma" singari didaktik asarlar yaratilgan. To`g`ri, adabiyot taraqqiyotining keyingi bosqichlarida sof didaktik xarakterdagi asarlar kamayib boradi, hatto oshkor didaktikaga berilgan asarlar badiiy mukammallikdan yiroq tushadi, deb hisoblanadi. Shunga qaramay, adabiyotning mazkur funksiyasi hamon juda kuchli va sezilarlidir. Zero, chinakam san'at asarida ijodkor ezgulik, go`zallik, adolat singari umuminsoniy qadriyatlar tomonida turib fikr yuritadiki, ayni shu narsa badiiy adabiyotdagi tarbiyaviy funksiyaning har vaqt mavjudligini ta'min etadi.

Kompensatorlik funksiyasi. Badiiy adabiyotda inson o`z hayotida ko`rmaganini ko`radi, undan o`ziga yetishmayotgan narsalarni topadi va shu asosda ruhiy qoniqish hosil qiladi. Bu jarayonning asosi shuki, badiiy asar mutolaasi davomida o`quvchi irreal olamda - badiiy reallikda yashaydi: shu irreal olamda real hayotida ko`nglidan kechirmagan hislarni kechiradi, umri davomida tushmagan vaziyatlarda "yashaydi". Ya'ni, kompensatorlik funksiyasini badiiy adabiyotni "qo`shimcha umr" deganimiz bilan bog`lab tushunish o`ng`ay. Masalan, kishi hayotda hech sevmagan yo sevilmagan bo`lishi mumkin - badiiy asar voqeligida yasharkan, u qahramon bilan birga ishqqa mubtalo yoxud buyuk bir sevgiga sazovor bo`la oladi; irreal olam qashshoqqa - g`aniy, qo`rqoqqa - botir, baxtsizga - baxtiyor bo`lib ko`rish imkonini yaratadi.

Badiiy bashorat. Badiiy adabiyotning bashoratchilik funksiyasi xalq og`zaki ijodidagi ertaklardayoq namoyon bo`ladi. Xususan, ertaklardagi "uchar gilam"lar, "oynayi jahonnamo"lar aviasiya va televidenie paydo bo`lishidan ancha ilgari bashorat qilingan edi. Insonning bugungi imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ertadan bashorat qilish yozma adabiyotda, xususan, fantastik va ilmiy-fantastik asarlarda ham kuzatiladi. Masalan, J.Vernning "Yerdan Oyga" (1865), "Oy atrofida" (1869) asarlarida insonning Oyga sayohati, "20000 lye suv ostida" (1870) romanida uning dengiz qa'rlarida sayohat qilishi tasvirlangan. Holbuki, mazkur asarlar yozilgan paytda insoniyat hali bularga qodir emasdi. Biroq bundan badiiy bashorat ertak va fantastik asarlargagina xos degan fikr kelib

chiqmasligi kerak, tushunishga oson bo`lishini o`ylabgina bularni misol tariqasida keltirdik. Aslida esa badiiy bashorat funksiyasi umuman adabiyotga xosdir. Negaki, badiiy adabiyot hamma vaqt "kecha" yoki "bugun"ning badiiy tahlili asosida kishilik jamiyatining "erta"si haqida fikr aytishga intiladi. Zero, jamiyatdagi joriy holat, undagi rivojlanish tamoyillarining badiiy tadqiqi bunga etarli asos beradi. Masalan, nemis adibi L.Feyxtvangerni olaylik. Adib 1933 yilda, Germaniyada fashistlar diktaturasi o`rnatilgach, xorijga chiqib ketgan. Ya'ni, Feyxtvanger fashistlarni hokimiyat tepasiga keltirgan shart-sharoitlarni, siyosiy jarayonni hamda buning natijasida yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy holatni juda yaxshi bilgan. Yozuvchi o`zining "Soxta Neron"(1936) romanida ayni shu jarayonlarni metaforik tarzda badiiy tadqiq etadi va mustabid tuzumning muqarrar halokatini bashorat qiladi, buni badiiy asoslab beradi. Shunga o`xshash, A.Qodiriy "O`tkan kunlar"da yurtimizning yaqin o`tmishini badiiy tahlil qilib, "qipchoq - qorachopon" mojarolari Chor istibdodiga yo`l ochganidek, yurtning "qizil"lar va "oq"larga bo`linishi "qizil istibdod"ga yo`l ochishini bashorat qilgan, yurtdoshlarini bundan ogoh qilishga intilgan edi.

Estetik funksiya. Badiiy adabiyot dunyoni go`zallik qonunlari asosida qayta yaratadi, uning o`zi tasvirlayotgan narsaga berayotgan bahosi go`zallik va ezgulik mavqeidan turib chiqariladi. Adabiyot tasvirlagan go`zal his-tuyg`ular, go`zal a'mollar, go`zal va ulug`vor hayotiy holatlar, go`zal insoniy munosabatlar - bularning bari o`quvchini go`zallikka oshufta etadi, uni go`zallikni qadrlashga, hunuklikdan hazar qilishga o`rgatadi. Adabiyotda go`zallikni topa bilgan odam uni hayotda ham topa biladi, undan zavqlanish va uni qadrlashga qobil bo`ladi. Shu tariqa badiiy adabiyot insonda go`zallik tuyg`usini rivojlantiradi, badiiy didni tarbiyalaydi.

## Tayanch tushunchalar:

*inson faoliyati*
*ruhiy faoliyat*
*ijtimoiy ong*
*ijtimoiy ong shakllari*
*adabiyot ijtimoiy ong shakli*
*badiiy adabiyotning polifunksionalligi*

## Savol va topshiriqlar:

*1. "Ijtimoiy ong" nima? Nima uchun badiiy adabiyotni ijtimoiy ongga mansub etamiz? Buni o`zingiz bilgan asarlar misolida tushuntirib bering.*

*2. Amaliy va ruhiy faoliyatlarning farqli tomoni nimada? Nima uchun badiiy adabiyotni insonning ruhiy faoliyati mahsuli deb hisoblaymiz?*

*3. Badiiy adabiyotning jamiyat hayotidagi o`rni, uning vazifalari nimalardan iborat? Badiiy adabiyotning ijtimoiy funksiyalarini misollar yordamida tushuntiring?*

*4. A.Qahhorning "Adabiyot atomdan kuchli, lekin uning kuchini o`tin yorishga sarflash kerak emas" degan mashhur gapini qanday tushunasiz?*

*5. Cho`lpon "Adabiyot yashasa - millat yashar" deganida nimalarni nazarda tutgan deb o`ylaysiz?*

## Adabiyotlar:


1. Чўлпон. Адабиёт надир. Т., -1994. Б.35
2. Саримсоқов Б. Адабиётнинг ижтимоий табиати // Ўзбек тили ва адабиёти.-1995.-№2.-Б.46-52.
3. Раҳимжонов Н. Лирикада сиёсий ғоя ва ижтимоий маъно // Ўзбек тили ва адабиёти.-1996.-№3.-Б.54-56
4. Раҳимжонов Н. Бугуннинг қаҳрамони ким//Ўзбек тили ва адабиёти.-2001 №6. Б. 8-12
5. Самосознание европейской культуры XX века.-М.,1991
6. Борев Ю.Б. Эстетика -М., 1988.
7. Литературный энциклопедический словарь.-М.,1987

# Adabiyot va mafkura

***Mafkura tushunchasi. Dunyoqarash va badiiy ijod. Umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi. Mafkura va adabiyot munosabati.***

O`zbek tilida faol ishlatiluvchi "fikr", "tafakkur", "mafkura" so`zlarining o`zakdosh so`zlar ekanligi sizlarga ma'lum. Inson ongida olam va odam haqida fikr va tasavvurlar mavjudligini, inson tafakkur (fikrlash) qobiliyatiga ega oliy mavjudot ekanligini yaxshi bilasiz. Xo`sh, insonga xos ikki muhim xususiyatni bildirgan so`zlar bilan o`zakdosh bo`lgan "mafkura" so`zi nimani anglatadi? Mafkura deganda ma'lum bir jamiyat, davlat, millat va hokazo ijtimoiy guruhlarning siyosiy, iqtisodiy va h.k. maqsadlariga mos holda muayyan bir tizim holiga keltirilgan fikr va g`oyalar jamini tushunamiz. Demak, mafkura "fikr" va "tafakkur" tushunchalariga nisbatan xoslanganroq, maxsus tushuncha ekan. Boshqa bir jihati shuki, "fikr" va "tafakkur" alohida olingan har bir insonga *tabiatan* xos narsa, "mafkura" esa avvalo *ijtimoiy hodisa* sifatida maydonga keladi, keyin har bir alohida shaxs tomonidan o`zlashtiriladi.

Jamiyatda yashayotgan shaxs (jumladan, ijodkor ham) ma'lum bir ijtimoiy guruh vakili, demak, o`zining muayyan ijtimoiy muhitda shakllangan qarashlari, orzu-intilishlariga egaki, bular shu guruhning qarashlari, orzu-intilishlariga ko`p jihatdan mos. Shunga qaramay, ijodkor birinchi galda shaxs, shu bois ham asar mazmunida shaxsiylangan ijtimoiylik aks etadi, shaxsiylik va ijtimoiylik uyg`un mujassamlashadi. Aksincha yo`ldan borilsa, ya'ni, ijodkor shaxsi ijtimoiylikda singib yo`qolsa - ijodiylik yo`qoladi, bu holda ijod ham, badiiyat hodisasi ham mavjud emas. Negaki, bu holdayozuvchi voqelikni tayyor qoliplar asosidako`radi, o`sha qoliplar asosidatasvirlaydi vabaholaydi - sxematizm yuzagakeladi. Sirasi, komputer texnikasi yuksak rivojlangan bizning zamonamizda, ehtimol, bunday sxematik asarni dasturiy jihatdan yaxshi ta'minlangan komputer ham yozishi mumkin. Sho`ro davri adabiyotining fojiasi ayni shunda - ijodkor shaxsining ijtimoiylikda singib yo`qolib ketganida edi.

Badiiy ijod dunyoqarash bilan bog`liq tarzda kechadi. Dunyoqarash deganda konkret insonning dunyo haqidagi bilimlari,

tushunchalari, g`oyalarini tushunamiz. Badiiy asarda akslangan badiiy voqelik ijodkor tomonidan ko`rilgan, uning ideali asosida ijodiy qayta ishlangan va g`oyaviy-hissiy baholangan voqelik ekan, demak, badiiy asar mazmuni ijodkor dunyoqarashi bilan bog`liq bo`ladi. Ma'lumki, har bir inson dunyoni o`zicha ko`radi, uni o`zicha idrok qiladi va o`zicha baholaydi. Qizig`i shundaki, hammamiz ham o`zimiz ko`rgan voqelikni real voqelik deb tushunamiz, holbuki, bu - voqelikning ongimizdagi biz ko`rolgan va idrok etolgan aksi xolos, ya'ni, *individual borliqdir*. Shunday ekan, bir joyda, bir davrda yashab turgan ikki inson ongidagi voqelikning aksi bir xil bo`lolmaydi. Buning yorqin misoli sifatida "Kecha va kunduz" bilan "Qutlug` qon" romanlarini olib ko`rishimiz mumkin. Ikkala asar bir davrda yaratilgani, bir davrni qalamga olgani holda, har ikki romanda akslangan badiiy voqelik bir-biridan tubdan farq qiladi. Sababi, har ikki adibning asarida ham individual borliq - ularning ongida akslangan voqelikning badiiy modeli o`z aksini topgan. Voqelikning ijodkor ongida qay tarzda akslanishi bevosita uning dunyoqarashiga bog`liqdir. Tasavvur qilingki, ikkinchi jahon urushi voqealarini ikki qarama-qarshi tomon vakillari bo`lmish yozuvchilar aks ettirdi. Bu holda ulardan biri, masalan, Berlinda o`z jonini xavfga qo`yib tank ostidan nemis qizalog`ini qutqargan sho`ro askarini bo`rttirib ko`rsatishi, ikkinchisi esa vujudi intiqom olovida yongan, yovuzlikka yovuzlik bilan javob berishga jazm qilgan sho`ro askarini bo`rttirishi mumkin. Holbuki, urushda unisi ham, bunisi ham sodir bo`lgan bo`lishi mumkinligini hech kim inkor qilolmaydi. Ko`ramizki, voqelikning qaysi jihatlarini ko`rish, shu jihatlardan qaysilarini bo`rttirgan holda o`sha voqelikning mohiyati sifatida taqdim qilish ijodkor dunyoqarashi bilan bog`liq ekan.

Haqiqiy san'atkor qaysi ijtimoiy guruhga mansubligidan, qanday ijtimoiy maqsadlarga xizmat qilishidan qat'i nazar, u yaratgan badiiy asarda umuminsoniy qadriyatlar ustuvorlik qiladi. Shu bois ham chinakam badiiy asarda ijodkor har vaqt ezgulik, go`zallik, adolat, insoniylik kabi mangu qadriyatlar tomonida turadi. Umuminsoniy qadriyatlarga zid g`oyalarni o`ziga singdirgan asarning chinakam badiiy qimmatga ega bo`lishi mumkin emas. Zero, bunday asar o`quvchini o`zidan itaradi (ilon tanasi qancha go`zal ranglar jilosiga ega bo`lmasin, odamni o`ziga jalb qilish o`rniga o`zidan itaradi). Ko`ramizki, badiiy adabiyot va san'atdagi go`zallik ma'naviyatdan

ayro holda yashay olmaydi, *badiiyat estetik kategoriyagina emas, ma'lum ma'noda etik kategoriya ham sanaladi.*

Kishilik jamiyati turli qarashlarga ega bo`lgan kishilardan tarkib topganidek, turli mafkuraga ega guruhlardan ham tashkil topadi. Bu mafkuralarning har biri konkret ijtimoiy-siyosiy maqsadlarni ko`zda tutadi. Mavjud mafkuralar ichida kishilik jamiyati taraqqiyotiga xizmat qiladiganlari bilan bir qatorda buning ziddiga ishlaydiganlari ham bo`ladi. Shunday ekan, san'at va adabiyot bu mafkuralarning faqat umuminsoniy qadriyatlarga muvofiqlarinigina o`ziga singdiradi. Deylik, XX asr vabosi sanalmish fashizm mafkurasi insoniyat dushmani ekanligi hammaga ayon, shu bois ham haqiqiy san'at asarlarida bu mafkura o`zining aksini topmaydi, bu manfur mafkura aks etgan asarlar esa tor doiralar uchungina bo`lib qoladi. Fashistlar Germaniyasidan chinakam iste'dodlarning chiqib ketgani, boshqa yurtlarda umr kechirgani ham buning yorqin dalilidir. Yovuzlik bilan oshno tutingan mafkura insoniyatga, baski, san'atga yot hodisadir. Xalqimizning tinchini buzayotgan, yurtimizning taraqqiy sari, chin ma'nodagi hurlik va farovonlik sari yo`lida to`g`anoq bo`lishga intilayotgan diniy ekstremistlarda ham mafkura bor, biroq bu mafkura umuminsoniy qadriyatlarga ziddir. Zero, o`zgalarning umriga zomin bo`lish, erkini bo`g`ish evaziga bo`lsa-da maqsadga yetishni oqlagan mafkura insoniylikdan butkul yiroq tushadi. San'atning injaligini ko`ringki, umuminsoniy qadriyatlarga zid mafkuraning badiiyat bobida biror arzigulik mahsul berishi mahol - bunday mafkura chinakam badiiy qadriyatlar yaratishga ojizdir.

Adabiyot va mafkura munosabati qanday bo`lishini quyidagicha izohlash mumkin: ijodkor muayyan mafkuraga moyil bo`lgani holda uning estetik ideali umuminsoniy qadriyatlar asosiga qurilgan, demakki, bu idealda ko`hna zamonlardan beri ajdodlarimiz intilib yashayotgan ezgu maqsadlar o`zining quyuqlashgan ifodasini topgan. Umuminsoniy qadriyatlar asosiga qurilgan ideal zamonda cheklangan emas: ideal - ajdodlarimiz eng qadim zamonlardan intilib yashagan ezgu maqsadlar avloddan avlodga to`lishib, mukammallashib, sayqallanib boradiki, bu jarayon uzluksiz va beniyahoyadir. Muayyan mafkura ko`zlagan maqsad esa ancha yaqin, unga ma'lum (cheklangan, yaqin kelajakdagi) vaqtda yetishiladi. Ya'ni, agar asar konkret mafkuranigina targ`ib etishga xizmat qilgudek bo`lsa, uning umri o`sha maqsadga yetilgunga (yoki o`sha

mafkuraning asosi puch ekanligi ayon bo`lgunga) qadar bo`ladi xolos. Holbuki, chinakam badiiy asar mangulikka bo`ylashmog`i lozim, u vaqt e'tibori bilan chegaralangan maqsadlar doirasida qolib ketolmaydi.

Yuqoridagilardan ko`rinadiki, ijodkorning mafkuraga munosabati erkin bo`lmog`i lozim, ya'ni, u muayyan mafkura doirasida shaxsligini namoyon eta bilmog`i zarurdir. Ikkinchi tomondan, estetik idealda konkret mafkuraga nisbatan umuminsoniy qadriyatlar salmoqliroq bo`lishi lozim, shundagina badiiy asar o`tkinchi hodisa bo`lib qolmaydi, davrga nisbatan daxlsiz bo`lib qoladi. Zero, asar mazmunining u yaratilgan konkret ijtimoiy-siyosiy holatga qaratilgan aktual qatlami vaqt o`tishi bilan baribir tushib qoladi, asarni yuzada tutib qoladigan tub estetik qatlam esa umuminsoniy qadriyatlar bilan hamohangdir. Mafkura - jamiyatning muayyan yo`nalishda izchil rivojlanishida, uning kuchlarini birlashtirib, aniq maqsad sari yo`naltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois ham mustaqillikka erishgan O`zbeksiton sharoitida milliy mafkurani ishlab chiqish va ommalashtirish masalasi davlat siyosati maqomidagi tadbir, kun tartibidagi eng dolzarb masalaga aylanadi. Zero, milliy mafkura O`zbekistonning buyuk kelajagini yaratish, dunyo sahnasida buyuk ajdodlarimiz va buyuk kelajagimizga munosib o`rinni egallashimizda hal qiluvchi omillardan biridir. Shunday ekan, milliy mafkurani ishlab chiqish va ommalashtirish ishida faol qatnashishga badiiy adabiyot ham burchlidir. Taassufki, sho`ro davrida kommunistik mafkuraga xizmat qilgan ijodkorlar va ular yaratgan asarlar taqdiridan o`zicha saboq chiqargan ayrim kishilarda adabiyot va mafkura munosabati masalasida biryoqlama xulosalar paydo bo`lib ulgurdi. Natijada ayrimlar, "adabiyot mafkuradan holi bo`lishi kerak", "adabiyot mafkuraga xizmat qilmasligi kerak" qabilidagi sirtdan jozibali va to`g`ridek ko`rinadigan, haqiqatda esa xato fikrlarni oldinga suradilar. Bizningcha, bu xil fikrlarning paydo bo`lishiga sabab shuki, ular mafkura va adabiyot munosabatining "sovetcha" ko`rinishidan boshqacha munosabat, to`g`ri asosdagi munosabat mavjud bo`lishi mumkinligini tasavvur qilolmaydilar. Holbuki, adabiyot bilan mafkura orasida tabiiy, hech bir zo`rlashsiz - ijodkorning o`z qarashlari, vijdon amri bilan bog`liq munosabat ham bo`lishi mumkin. Yuqorida aytganimizdek, mafkura jamiyatni maqsadga

safarbar etadi. Xo`sh, milliy mafkuramiz qanday maqsadni ko`zlaydi? Ma'lumingizki, bu mafkura bizni Buyuk O`zbekistonni yaratish maqsadiga boshlaydi. O`sha qurilajak buyuk kelajakda insonning erkin, hur va farovon yashashi, o`zidagi aqliy, ruhiy va jismoniy imkoniyatlarni to`la ro`yobga chiqarishi, komillik sari intilishiga sharoit yaratiladi. Zero, siyosiyroq tilda O`zbekistonni iqtisodiy jihatdan yuksak rivojlangan huquqiy demokratik davlatga aylantiramiz degani, sodda tilga aylantirilsa, shunday jarang topadi. Xo`sh, bu maqsad qaysi jihatlari bilan kishini qoniqtirmasligi mumkin? Yoki qaysi jihatlari bilan u badiiy adabiyot va san'atning chin mohiyati bo`lmish umuminsoniy qadriyatlarga, ezgulik, insonparvarlik tamoyillariga zid ekan? Bizningcha, jamiyatimiz ko`zlayotgan maqsad hech bir san'atkorni vijdoniga, idealiga zid borishga majbur qilmaydi. Aksincha, bular o`zini chinakam san'atkor va shu yurt farzandi deb bilgan har bir ijodkorning ideali bo`lishga arzigulik emasmi?! Shunday, bugungi kunda jamiyatimiz, uning ilg`or vakillari ko`zlagan maqsad umuminsoniy qadriyatlarga, ezgulik va insonparvarlik tamoyillariga har jihatdan mosdir. Shu bois ham biz milliy mafkurani shakllantirish va ommalashtirish ishida badiiy adabiyot faol bo`lishi kerak, bunga u burchli, deya baralla aytamiz.

Masalaning ikkinchi muhim tomoni - adabiyot shu burchni qay yo`sin o`tashi. Adabiyotni mafkuradan holi ko`rishni istovchilar, bizningcha, ayni shu masalada to`g`ri tasavvurga ega emaslar. Nazarimizda, ular "xizmat qilish" bilan "yugurdaklik qilish", "shotirlik qilish" tushunchalarini farqlay bilmaydilar. Endi o`rtaga bir savol tashlaylik: sho`ro davrida o`zini kommunistik mafkura xizmatchisi deb bilgan ijodkorlar haqiqatan ham mafkuraga xizmat qilganmi yoki o`sha mafkura soyasida davru davron surgan nomenklaturaga yugurdaklik qilganmi? Bu savolga javob berish uchun ijodkor bilan mafkura munosabati qanday bo`lmog`i lozim, degan masalani oydinlashtirib olaylik. Avvalo, chinakam san'atkor jamiyatning ilg`orida bo`lishi zarur va tabiiy ham, chunki u ideal qo`ynida yashaydi. Ayni paytda, san'atkorning ideali g`oyibdan kelgan narsa emas: u, bir tomondan, asrlardan beri ajdodlar sinovidan o`tib kelgan o`lmas qadriyatlarni, ikkinchi tomondan, o`sha san'atkor yashayotgan muhit sharoitida yetilgan eng ilg`or orzu-intilishlarni o`zida mujassam etadi. Aytmoqchimizki,

san'atkorning estetik idealiga o`z davrining ilg`or ijtimoiy maqsadi ham singib ketadi. Faqat bir sharti borki, *o'sha ijtimoiy maqsad san'atkor uchun shu darajada shaxsiylanib ketishi zarurki, endi u o'sha maqsadga o'z-o'zining maqsadi deb qarasin* - ijtimoiylik va shaxsiylik chegaralari yo`q bo`lib ketsin. Mana shu shartni uddalagan ijodkor endi hech kimning xizmatchisi emas, aniqrog`i, u endi o`z idealining xizmatchisi, xolos. Istiqlolning otashin kuychisi Cho`lponni eslang. O`z davrining eng ilg`or ijtimoiy maqsadi - yurt ozodligi g`oyasi Cho`lpon ongida shu darajada shaxsiylandiki, endi u shoirning shaxsiy dardiga, orzusiga, hayotining mazmuniga - IDEALIga aylandi. Shu bois ham mustabid boltasi ostida turib istiqlol ruhida she'rlar bitishga Cho`lponni birov majbur qilgan emas, ERK mafkurasini yurtdoshlar diliga singdirishga intilgan shoir birovga xizmat qilishni o`ylamagan.

Davrining ilg`or ijtimoiy maqsadini o`zining estetik idealiga singdirgan san'atkor voqelikni o`sha ideal nuqtayi nazaridan baholaydi. Baski, u mavjud voqelikdagi o`z idealiga - davrining ilg`or maqsadiga muvofiq jihatlarni ma'qullaydi, unga nomuvofiqlarini qoralaydi. Faqat shu holdagina uni mafkuraga xizmat qildi deyish mumkin bo`ladi. Aks holda, agar ijodkor mafkuraning ko`r-ko`rona targ`ibotchisi bo`lsa, mavjud voqelikni ideal nuqtayi nazaridan xolisona badiiy tadqiq qilish va g`oyaviy-hissiy baholash o`rniga faqat voizlikni kasb qilsa, qilar ishi mafkurani madh etish- u o`z nazdida uning himoyachisiga aylanib qolsa - bilingki, u mafkuraning foydasi emas, aksincha, zarariga ishlayotgan bo`lib chiqadi. Deylik, istiqlol dardini o`z vaqtida Cho`lpon, Fitrat, A.Qodiriylar yonib kuylagan edilar, ularning yurt ozodligi mavzusidagi asarlari chinakam dardning mahsuli.ediki, shu bois ham bu asarlar chin ma'noda yurak qoni bilan bitilgan. O`quvchini to`lqinlantiradigan yuksak tushunchalar haqida asar yaratish uchun kishida ma'naviy huquq bo`lmog`i kerak, bu huquqni esa ijodkor uchun ijtimoiy dardning chinakamiga shaxsiylanganligigina berishi mumkin. Zero, buyuklarimiz guldek hayotini garovga qo`yib, yurak qoni bilan yozgan VATAN, ERK, OZODLIK kabi mavzularda engil-elpi, chinakamiga hissiy idrok qilinmagan o`y-fikrlar, kechinmalarni yozish oq qog`oz oldida ham, o`quvchilar oldida ham gunohdan o`zga emas.

Shuni ham unutmaslik kerakki, milliy mafkuraga xizmat qilish

degani istiqlol, vatan va h. haqidagina yozish degani emas. Chinakam san'atkor nima haqida yozishidan qat'i nazar, - u ma'naviy muammolarni badiiy tadqiq etadimi, o`zining qalb qa'rlariga nigoh tashlaydimi, ishq-muhabbat haqida yozadimi... - o`zi badiiy tasvir va tadqiq predmeti sifatida olgan narsani umuminsoniy qadriyatlar, ezgulik, insoniylik nuqtayi nazarlaridan yoritar va baholar ekan, u milliy mafkuramizning shakllanishiga, mustahkamlanishiga, jamiyat a'zolari shuuriga singishiga xizmat qilayotgan bo`ladi. Zero, yuqorida ta'kidlaganimizdek, jamiyatimizning mafkurasi umuminsoniy qadriyatlarga har jihatdan muvofiqdir.

## Tayanch tushunchalar:

*mafkura*
*dunyoqarash*
*individual borliq*
*umuminsoniy qadriyatlar*
*estetik idealda umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligi*
*ijtimoiy dardning shaxsiylanishi*

## Savol va topshiriqlar:

*1. Ijodkor dunyoqarashining badiiy asar mazmuniga ta'sirini qanday tushunasiz? Badiiy ijod jarayonida ijodkor dunyoqarashi bilan muayyan mafkura munosabati qanday kechadi?*

*2. "Real borliq", "individual borliq" va "badiiy voqelik" tushunchalarini izohlang. Ularning o`zaro munosabatini tushuntiring.*

*3. Badiiy adabiyot mafkuradan holi bo`lishi mumkinmi? "Mafkuradan holi adabiyot degani aslida "mafkurasizlik mafkurasi adabiyoti" degan fikrga qanday qaraysiz? Javobingizni asoslang.*

*4. Mafkuraga "xizmat qilish" deganda nimani tushunasiz? Sho`ro davri adabiyotida bu narsa qanday tushunilgan? Mafkura va adabiyot munosabatini "sho`rocha" tushunish qanday oqibatlarga olib keldi?*

*5. Jamiyatimizning bugungi mafkurasi bilan badiiy adabiyotning munosabati qanday bo`lmog`i kerak? Qaysi holda ijodkor mafkuraga chinakam xizmat qilgan bo`ladi?*

## Adabiyotlar:

1. Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, сиёсат мафкура.- Т.: Ўзбекистон, 1993

2. Каримов И.А. Жамиятимиз мафкураси халқни - халқ, миллатни - миллат қилишга хизмат этсин. Тафаккур.- 1998.- №2.

3. Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар.-Т.,2000

4. Раҳимжонов Н. Лирикада сиёсий ғоя ва ижтимоий маъно//Ўзбек тили ва адабиёти.-1996-№3.-Б.54-56

5. Мирзаев Т. Миллий истиқлол мафкураси ва ўзбек адабиётшунослиги // Ўзбек тили ва адабиёти.-1994.-№3.-Б.3-6

6. Жумахўжа Н. Миллий истиқлол мафкураси ва адабий мерос//Ўзбек тили ва адабиёти.- 1998-№1.-Б. 3-6.

7. Ҳаққул И. Мафкура - тафаккур ва тараққиёт тамали// Ўзбек тили ва адабиёти.-1998. №3. Б.3-6.

8. Потебня А. Эстетика и поэтика.-М.,1976

9. Борев Ю.Б. Эстетика.- М., 1988.

# Badiiy adabiyot san'at turi sifatida

***San'at tushunchasi. Amaliy va badiiy san'atlar. Badiiy adabiyot - so`z san'ati. Badiiy adabiyotning san'at turlari orasidagi o`rni va o`ziga xosligi. Badiiy adabiyotning boshqa san'at turlari bilan aloqasi.***

O`z vaqtida Abdurauf Fitrat: "San'at lug`atda hunar demakdirkim, bir narsani yaxshi ishlab chiqarishdan iboratdir"[1] - deb yozgan edi. Bir qarashda Fitrat "san'at" so`zining ma'nosini, san'atning mohiyatini jo`nlashtirayotgandek ko`rinishi mumkin. Biroq e'tibor qilinsa, olim "yaxshi" so`ziga ayricha urg`u berayotgani, unga juda katta ma'no yuklayotgani anglashiladi. Xo`sh, ko`chirmadagi "yaxshi" so`ziga qanday ma'nolar yuklangan? Darhaqiqat, tilimizda ishlatiluvchi "san'at" so`zining ma'no qirralari ancha keng. Masalan, "rassomlik san'ati", "kulollik san'atini egallamoq", "yuksak san'at bilan ishlangan" kabi birikmalarning har birida "san'at" so`zi turli ma'no qirralarini ifodalaydi. Shunga qaramay, ularda "san'at" so`zi ifodalayotgan ma'no qirralarini birlashtiruvchi umumiy nuqtalar mavjudki, bu mazkur so`zning har uchala holda ham "go`zallik", "mahorat", "did" tushunchalari bilan bog`liqligidir.

"San'at" so`zi jonli tilimizda nechog`li keng ma'noda qo`llanmasin, tabiiyki, bizni uning lug`aviy ma'nosi emas, istilohiy ma'nosi qiziqtiradi. Istilohiy ma'noda san'at deganda insonning go`zallik qonuniyatlari asosida borliqni badiiy o`zlashtirish(va o`zgartirish)ga qaratilgan yaratuvchilik faoliyati hamda uning natijasi o`laroq vujudga kelgan narsalar jami tushuniladi. Demak, bu ma'noda tushunilsa, go`zallik qonunlari asosida mahorat va did bilan yaratilgan narsalarning hammasi san'atga aloqadordir. Shu bois ham biz "amaliy san'at" va "badiiy (nafis) san'at" turlarini ajratamiz. Amaliy san'at turlariga kulolchilik, naqqoshlik, kashtachilik, zardo`zlik, modelerlik kabi qator sohalarni kiritsak, badiiy san'atlarga rassomlik, musiqa, haykaltaroshlik, kino, teatr kabilarni mansub etamiz. Modomiki biz keng ma'nodagi "san'at" ichida amaliy va badiiy san'at turlarini ajratar ekanmiz, ularning umum-

[1] Фитрат. Адабиёт қоидалари. Т., 1995.- 20-бет

lashtiruvchi va farqli jihatlari bo`lishi lozim. Bu o`rinda umum-lashtiruvchi jihat shuki, har ikkisi ham go`zallik qonunlari asosida did va mahorat bilan yaratiladi. Farqli jihatlariga kelsak, ulardan eng muhimi shuki, amaliy san'at mahsuloti insonning moddiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilsa, badiiy san'at namunalari insonning ma'naviy-ruhiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgandir. Demak, amaliy san'at mahsuloti insonning kundalik turmushda foydalanishini ko`zda tutadi, ayni paytda unga zavq beradi. Masalan, kulol ishlagan piyola qanchalik nafis va go`zal bo`lmasin, biz unda choy (umuman, ichimlik) ichamiz. Mohiyat e'tibori bilan nafis ishlangan piyola ham, jo`n piyola ham amaliy foydaliligi jihatidan teng. Biroq nafis ishlangan piyola kishining choy ichishiga vosita bo`lishidan tashqari unga zavq ham beradi, kayfiyatini ko`taradi. Shunday bo`lsa-da, zavq bag`ishlashlik piyolaning ikkilamchi funksiyasi. Demak, amaliy san'at mahsulotining qimmati birinchi navbatda amaliy jihatdan foydaliligi bilan belgilanadi. Endi qiyos uchun, masalan, qadim yunon haykaltaroshi yaratgan biror bir haykalni olaylik. Haykalni yaratar ekan yunon undan amalda foydalanishni ko`zda tutgan emas. Aytaylik, u o`zi topingan ma'budlardan birining haykalini yaratdi. Haykaltarosh o`sha ma'budni avvalo o`zining tasavvurida yaratdi, ijodiy fantaziya quvvati bilan tasavvur qila olgani obrazda - qotirib qo`yilgan lahzada ma'budining go`zalligi, qudrati, mehri-yu qahrini ko`ra oldi, undan zavqlandi, hayratlandi, unga topindi va ayni shu holatni toshda yo`nib muhrladi. Haykalni ko`rar ekan tomoshabin o`sha zavqni, hayratni o`ziga yuqtiradi, haykaldan boshqa maqsadda foydalanishni o`ylamaydi ham. Ko`ramizki, haykal boshqa bir odamning zavqi-yu hayratini boshqa odamga ko`chirdi, uning ruhiyatiga oziq berdi.

Yuqoridagidan ko`rinadiki, piyola ham, haykal ham go`zallik qonunlari asosida did va mahorat bilan yaratilgan. Ya'ni, amaliy san'at ham, nafis san'at ham estetik faoliyat mahsuli. Insonning go`zallik qonunlari asosida borliqni o`zlashtirish va o`zgartirishga qaratilgan faoliyati estetik faoliyat deb yuritiladi. Estetik faoliyat inson hayotining barcha nuqtalarida o`zini namoyon qiladi: kundalik turmushda, mehnatda, istirohatda va h. Aytaylik, hovlisiga gul-u rayxon o`tqazayotgan ayol, o`ziga oro berayotgan qiz, daraxtlarga shakl berayotgan bog`bon, tabiat manzarasidan zavqlanayotgan sayyoh, o`sha manzarani chizayotgan rassom ... - bularning barida

estetik faoliyat unsurlari u yoki bu darajada mavjud. Biroq ular bir-biridan farqlanadi. Aytaylik, agar piyola go`zallik qonunlari asosida kechgan *mehnat faoliyati* mahsuli bo`lsa, haykal go`zallik qonunlari asosida kechgan *ijodiy-ruhiy* faoliyat mahsuli. Anglashiladiki, *estetik faoliyat* tushunchasi badiiy ijod, badiiylik tushunchalaridan keng ekan, zero, badiiy ijod estetik faoliyatning bir ko`rinishi sifatida mavjuddir.

Biz mutaxassis sifatida ko`proq tor ma'nodagi "san'at" tushunchasi bilan ish ko`ramiz. Tor ma'noda qo`llanilgan "san'at" so`zi badiiy san'atlarni ko`zda tutadi. Badiiy san'atlar deganda biz musiqa, raqs, rassomlik, haykaltaroshlik, badiiy adabiyot, teatr, kino kabi san'at turlarini tushunamiz. Modomiki badiiy san'atlarni ham turlarga ajratar ekanmiz, bu turlarni umumlashtiruvchi va farqlovchi jihatlar bo`lishi lozim. Sanalgan san'at turlarini umumlashtiruvchi jihat obrazlilik, ya'ni, ularning bari badiiy obraz vositasida fikrlaydi. Farqlovchi jihatlarga kelsak, bu narsa, birinchi navbatda, obrazni yaratish materialida ko`rinadi: musiqa ohanglar, rassomlik ranglar, raqs plastik harakatlar, haykaltaroshlik qotgan plastika vositasida obraz yaratadi. Badiiy adabiyot esa so`z vositasida obraz yaratadi va shu bois ham so`z san'ati deb yuritiladi. So`z universal bilish vositasi bo`lganidek, universal ifoda vositasi hamdir: har qanday fikriy faoliyat va hisning ifodasi so`z vositasida amalga oshadi, amalga osha oladi. So`z bilan ish ko`rgani uchun ham badiiy adabiyot boshqa san'at turlari orasida tasvir va ifoda imkoniyatlarining kengligi bilan alohida o`rin va mavqe kasb etadi. Biz ko`pincha "rangtasvir tili", "kino tili" kabi tushunchalarga duch kelamiz. Negaki, boshqa san'at turlarining tili badiiy adabiyot tiliga o`girilishi mumkin, boz ustiga, biz boshqa san'at turlariga mansub asarlarni-da so`z vositasida aqliy va hissiy mushohada qilamiz, "singiramiz". San'at turlarining ichida ifodaviy va tasviriy san'at turlarini farqlanadi. Bir xil san'at turlari tasvirlasa, boshqalari ifodalaydi. Aytaylik, musiqa - ifoda san'ati, kompozitor ohanglar orqali kechinmalarini ifodalaydi va shu ohanglar ruhiyatimizda muayyan bir kayfiyat hosil qiladi. Musiqani tinglarkan, o`sha kayfiyat asosida har bir tinglovchi o`ziga xos bir manzarani, holatni ko`z oldiga keltiradi. Ya'ni, kompozitor muayyan obraz ta'sirida tug`ilgan kechinmalarni ifodaladi - obrazning o`zini tasvirlamadi, tinglovchi esa kechinmalar asosida o`sha obrazni o`zi tasavvur

etadi. Rassomlik bilan haykaltaroshlik tasviriy san'at turlari sanaladiki, bunda o`zgacharoq holga duch kelamiz. Bu jarayonni tubandagicha tasavvur qilishimiz mumkin: biror manzara, holat musavvir qalbini jumbushga keltirdi, ko`nglida muayyan kechinmalar buhronini qo`zg`adi - musavvir o`zini hayratga solgan, zavqlantirgan, ko`nglida kechinmalar qo`zg`agan o`sha manzarani rangtasvirda muhrlaydi - rangtasvir bizda-da o`sha yoki o`shanga yaqin his-tuyg`ularni uyg`otadi, kayfiyatni hosil qiladi. Badiiy adabiyotga shu jihatdan nazar solsak, uning qorishiq hodisa sifatida namoyon bo`lishi ko`rinadi: deylik, epik asarlarni olsak, ularda tasviriylik xususiyati ustunligini, lirik asarlarda esa ifodaviylik yetakchilik qilishini kuzatamiz.

San'at turlari orasidagi farq yana ularning retsepient (o`quvchi, tinglovchi, tomoshabin) tomonidan qabul qilinishidagi o`ziga xoslikda ham ko`rinadi. Masalan, rassom chizgan peyzajni qabul qilish jarayoni bilan epik asardagi so`z bilan tasvirlangan peyzajni qabul qilishdagi farqni olaylik. Rangtasvir asarini yaxlit holda ko`ramiz: ya'ni, uni avvaliga butunicha ko`ramiz, keyin butundan qismga (detallarga qarab) boramiz. Badiiy adabiyotdagi peyzajni qabul qilishda esa, aksincha, qismdan butunga qarab boriladi: avvaliga detallar bilan tartibi bilan tanishamiz-da, oxirida ko`z oldimizda yaxlit manzara hosil bo`ladi. Ayrim san'at turlariga mansub asarlarni retsipient bevosita qabul qilsa, boshqalarining qabul qilinishi uchun o`rtada vositachi - ijrochining bo`lishi talab etiladi. Masalan, musiqa asarini olaylik. Musiqa asarining yaratuvchisi (kompozitor), asarning o`zi (notalar bilan ifodalangan matn), ijrochisi va eshituvchi bor. Ko`rinib turibdiki, kompozitor tinglovchi bilan bevosita muloqotga kirisha olmaydi, zero, ijro etilayotgan kuyda qisman ijrochining-da talqini qo`shilgan. Bu jihatdan badiiy adabiyotning ustunligi shundaki, o`quvchi badiiy informatsiyani bevosita (asarning o`zi orqali) qabul qiladi, o`quvchining ruhiy faolligi yuqori darajada bo`ladi. Turli san'at turlariga mansub asarlarning yaratilishi jarayoni bilan bog`liq farqlarga ham to`xtalish lozim. Masalan, badiiy adabiyot yozuvchining individual ijodiy faoliyati mahsuli bo`lsa, kino kollektiv ijod mahsuli sifatida yaraladi. Kino asarining yaratilishida ssenariy muallifi, sahnalashtiruvchi rassom, kompozitor, aktyor kabilarning ijodiy mehnati borki, ularning bari bir fokusga - rejissor nigohiga jamlanadi.

Mavjud san'at turlari orasida badiiy adabiyot yetakchilik mavqeida turadi. Bu xil mavqening asosi shuki, badiiy adabiyot universal bilish va ifoda vositasi bo`lmish so`z bilan ish ko`radi. Biz yuqorida badiiy adabiyot "tili"ga barcha san'at turlari "tili"ni o`girish mumkin, dedik. Biroq, agar bu fikrni mutlaqlashtirilgan holda tushunadigan bo`lsak, unda boshqa san'at turlarining paydo bo`lishi asossiz, keraksiz bo`lur edi. Holbuki, rangtasvir darajasidagi tasviriylikka, musiqa darajasidagi ifodaviylikka adabiyotning erishmog`i dushvordir. Shunga qaramay, badiiy tafakkur (umuman, inson tafakkuri) so`z asosiga qurilgani sababidan ham badiiy adabiyot belgilovchi san'at turi sanaladi: boshqa san'at turlarida yaratilgan obrazlar so`z san'atida yaratilgan obrazlar kontekstida qabul qilinadi. Shu tufayli ham, keyingi yillarda "ko`rish"ga asoslangan (vizual) badiiy informatsiyaning salmog`i ortgan va uning jamiyat hayotidagi o`rni sezilarli kuchaygan bo`lsa-da, so`z o`zining etakchi mavqeini saqlab qoldi, badiiy adabiyot esa hamon san'atning belgilovchi turi bo`lib turibdi.

Badiiy adabiyot san'atning boshqa turlari rivojiga kuchli ta'sir ko`rsatganidek, boshqa san'at turlari ham badiiy adabiyot taraqqiyotiga kuchli ta'sir ko`rsatadi. Ya'ni, adabiyot boshqa san'at turlari bilan aloqada yashaydi va rivojlanadi. Masalan, o`zbek milliy teatrining rivojlanishi o`zbek badiiy prozasining tasvir va ifoda imkoniyatlarini kengaytirgani, nasriy asarlar strukturasini o`zgartirgani shubhasizdir. Agar mumtoz nasrchilik va xalq qissalarida rivoya salmoqli o`rin tutgan bo`lsa, zamonaviy nasriy asarlarda "sahnaviylik"ning kuchaygani, dialoglarning tobora keng o`rin olib borishi hamda tasvirda "obyektivlik"ka intilishning ortgani kuzatiladiki, bu teatr san'atining rivoji bilan bog`liqdir. Zero, teatr san'ati milliy badiiy tafakkurni boyitdi: nosirlarimiz "dialog" vositasida qahramonlar ruhiyatini ochish, hayotiy holatning ruhiy asoslarini ko`rsatish kabi yangi badiiy imkoniyatlarni o`zlashtirdilar. Ikkinchi tomondan, o`quvchilar shu xil nasriy asarlarni qabul qilishga tayyorlandilar, epik nasriy asar voqealarini "chetdan" kuzatish (xuddi sahna asarini tomosha qilayotgandek) orqali estetik zavq olish, asar mazmun-mohiyatini tushunish ko`nikmalarini hosil qildilar. Misol uchun "O`tkan kunlar"ning eng mashhur epizodlaridan birini olib ko`raylik:

"Otabek garangsib qolgan, o`zini ovutmoqchi bo`lgan bu oliy

janob go`zalga nima deyishini bilmas, qayerdan so`z boshlashga hayron edi:

- Kim yig`latdi sizni?
- Yig`labmanmi?
- Ko`zingiz, kiprakingiz...
- O`zi shunaqa...
- Yig`latgan men emasmi?
- Kitobni nega yopdingiz? Ochib o`qing, men eshitay.
- Ota-ona rizoligini bir tomchi ko`z yoshingizga arzitdimmi?
- Men rozi, men ko`ndim,- dedi daf'atan Kumush, bu so`zni nimadandir qo`rqqandek shoshib aytdi.
- Ko`ndingiz... Nega, a?

Otabek taajjub va hayrat ichida edi.

- Negaki,- dedi Kumush,- men sizga ishonaman
- Shuning uchun...
- Shuning uchun ko`ndim...
- Ko`nglingiz farishtalar ko`nglidek.
- Sizning ham ko`nglingiz..."

Ko`rib turganimizdek, keltirilgan parchada muallif ishtiroki minimumga keltirilgan, u suhbatni go`yo chetdan kuzatib turibdi. Shunga monand, asarni o`qiyotgan kitobxon ham ushbu epizodni go`yo "ko`radi", suhbat go`yo uning tasavvuridagi "sahna"da yuz beradi. Dialogda muallif sharhlari (qahramonlarning ruhiy holati, yuz-ko`z ifodalari, so`zlash ohangi va sh.k.) ham deyarli yo`q: yozuvchi ulardan eng zarur deb bilgani - Kumushning roziligini "nimadandir qo`rqqanday shoshib" aytganini ta'kidlash bilan cheklanadi. Shunga qaramay, kitobxon hayotiy holatdan kelib chiqqan holda suhbatni tasavvuridagi sahnada jonlantiradi, qahramonlarning xatti-harakatlarini "ko`radi", gap-so`zlarini "eshitadi". Albatta, buning uchun kitobxonda muayyan tayyorgarlik, o`qish malakasi bo`lishi zarurki, bularning shakllanishida teatrning xizmati ulkandir.

Boshqa bir misol tariqasida musiqani olaylik. Milliy turmush tarzining, hayot ritmining o`zgarishi barobari milliy musiqamiz ritmida ham o`zgarishlar sodir bo`ldiki, bu o`zgarishlar she'riyatda ham kuzatiladi. Ritmning o`z holicha ham muayyan estetik qimmatga ega ekanligi e'tiborga olinsa, "bir tilda gapirish" zarurati she'riyatdan ritmik o`zgarishlarni taqozo etishi qonuniy hol ekanligi ayon bo`ladi.

Zero, aks holda she'riyat yangilangan estetik va ma'naviy-ruhiy ehtiyojlarga javob berolmay qoladi. XX asr boshlaridan she'riyatimizda barmoqning yetakchilik mavqeini egallay boshlagani, keyincha erkin she'rlarning ommalashgani buning yorqin dalilidir. Mazkur o`zgarishlar natijasida she'riyatimizning ritmik-intonatsion imkoniyatlari ortdi, unda ritmik rang-baranglik kuchaydi. Eng muhimi, endi ritmik rang-baranglik va ritmik evrilishlar bir she'r doirasida ham kuzatila boshladiki, bu mumtoz she'riyatimizga deyarli xos bo`lmagan xususiyatdir.

Milliy rangtasvir san'atining, xususan, undagi portret va peyzaj janrlarining rivoji va milliy nasrimizdagi peyzaj, portret tasviridagi o`zgarishlar, shuningdek, peyzaj she'rlar haqida ham yuqoridagicha fikrlarni aytish mumkin bo`ladi. Jumladan, mumtoz miniatura san'ati inson tasvirida ayrim detallarni (ko`z, qosh, lab, bel, soch va sh.k.) bo`rttirgan bo`lsa, mumtoz she'riyatimizda ham xuddi shu hol kuzatiladi. Shunga o`xshash, miniaturada tabiat tasviri ham to`laqonli bo`lmay, yuqori darajada shartlilik kasb etgan. Rangtasvir san'atida realistik tamoyillarning kuchayishi, to`laqonli portret va peyzajlarning yaratilishi adabiyotdagi peyzaj va portretning ham shu yo`nalishda takomillashuviga olib keldi. Masalan, X.Davronning quyidagi she'rini olaylik:

So`qir kech. Nurafshon osmon.
Ko`zda yonib yurakda bori,
Tuproq yo`ldan qaytmoqda dehqon,
Yuz-ko`zida dala g`ubori.

Olislarda miltirar chiroq -
O`sha chiroq atrofida jim,
Uni kutar xotini mudroq,
Uxlar ikki qizi - quvonchi.

So`qir kech. Nurafshon osmon.
Tuproq yo`ldan qaytmoqda dehqon,
Oyning oppoq yog`dusi tushib
Yelkasida yaraqlar ketmon.

Ushbu she'rda "rangtasvir tili"ga monandlik yaqqol ko`zga

tashlanadi. Xuddi rangtasvir asaridagi kabi unda ham bir lahza qotirib qo`yilgan go`yo: so`z vositasida ranglar, nur va soyalar o`yini, oldingi va orqa planlar farqlanadi. She'rni o`qiganda rangtasvir asarini tomosha qilayotgandek taassurot tug`iladi kishida, shoir xuddi musavvir chizgan manzarani so`z bilan sharhlayotgandek tuyuladi.

XX asrda shiddat bilan rivojlangan va keng ommalashgan kino san'ati bilan adabiyotning o`zaro aloqalari, ayniqsa, sermahsuldir. Avvalo, badiiy adabiyot kinoning shakllanishi uchun asos bo`lgani, "kino tili" so`z san'ati zaminida yuzaga kelganini ta'kidlash zarur. Ayni choqda, kino adabiyotda (shuningdek, teatr va rangtasvir san'atlarida) mavjud tasvir va ifoda imkoniyatlarini rivojlantirdi, ularning yangi qirralarini ochdi va oxir-oqibat uning o`zi adabiyotni boyitish imkoniga ega bo`ldi. Misol uchun yana X.Davronning bir she'rini ko`rib o`tamiz:

Javzo tuni...
Yaylov...
Hilol charaqlar...
Oq biya boshini ko`tarar kishnab -
Ko`zi yaraqlar...
Yashashdan mast go`yo
Qirovrang toychoq...
Cheki yo`q kechani zabt etib borar
Xushbo`y bir butoq.
Chayqalar kemadek
Oppoq na'matak,
Xush isli shamollar ko`ksini teshib
Tomadi shabnam...
Shataloq otib yelar
Qirovrang toychoq...
Oq biya boshini ko`tarar, tuyar -
Shivirlar butoq...
Yaylov uzra kecha...
Bahor...
Oy...
Adir...
Titrab-titrab bo`yin tomirigacha
Otlar o`tlayotir.

Bu she'r o`quvchisining ko`z oldida tasvir birma-bir, xuddi kino kadrlaridek almashinib turadi: tun - yaylov - hilol - oq biya - biyaning ko`zi - qirovrang toychoq; na'matak - tomayotgan shabnam; qirovrang toychoq - oq biya - butoq; yaylov - oy - adir - o`tlayotgan otlar - titrayotgan bo`yin tomirlari. Kadrlarning almashinish tartibida kinoga xos izchillik bor: go`yo kamera atrofdagi narsalarga navbat bilan yo`naltiriladi; umumiy plan bilan yirik plan (qoraytirib berildi) almashinib turadi va har bir yirik plan she'rning bitta kompozitsion bo`lagini yakunlaydi, o`ziga xos zarb vazifasini o`taydi. Ya'ni, she'rning qabul qilinishida kino asarini qabul qilishga yaqinlik, demakki, uning ifoda yo`sinida kino "tili"ga yaqinlik bor.

Bulardan ko`rinadiki, badiiy adabiyotning tasvir va ifoda imkoniyatlarining kengayishi va takomilida uning boshqa san'at turlari bilan aloqasi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois ham hozirgi adabiyotda nafaqat adabiy turlar orasidagi sintezlashuv, balki boshqa san'at turlari bilan sintezlashuv hollarini ham kuzatish mumkin. Demak, badiiy adabiyotga qotib qolgan hodisa sifatida ham, mutlaqo mustaqil hodisa sifatida ham qaramaslik kerak. Shundagina bugungi adabiyotdagi o`zgarishlarni his qilish va ularni "hazm" qila olish mumkin bo`ladi. Aks holda mutaxassis sifatida ham, kitobxon sifatida ham cheklanib qolish, adabiy hodisalarni o`tmish "toshi" bilangina o`lchaydigan bo`lib qolishimiz mumkin.

Xulosa shuki, chinakam adabiyotshunos bo`lmoq uchun, birinchidan, san'atning barcha turlaridan zavqlana biladigan xassos qalbga, ikkinchi tomondan, undagi o`zgarishlarni ziyraklik bilan ilg`ash-u tahlil qilishga qobil teran aqlga ega bo`lmoq lozim.

## Tayanch tushunchalar:

*san'at*
*amaliy san'at*
*foydalilik*
*moddiy ehtiyoj*
*badiiy san'at*
*ma'naviy-ruhiy ehtiyoj*
*estetik faoliyat*
*sintezlashuv*

## Savol va topshiriqlar:

*1. Estetik faoliyat tushunchasiga izoh bering. Estetik faoliyat va badiiy ijod tushunchalarining o'zaro munosabati qanday?*

*2. Amaliy va badiiy san'atlarning mushtarak va farqli tomonlarini tushuntiring. Xususan, amaliy faoliyat o'zi yo'naltirilgan predmetni o'zgartirishi aytildi. Shu jihatdan qarab, haykaltaroshlikning badiiy san'at turi ekanini asoslab bering.*

*3. Badiiy san'at turlarini umumlashtiruvchi va farqlovchi jihatlar qaysilar?*

*4. Badiiy adabiyotning o'ziga xosligini boshqa san'at turlari, masalan, musiqa va rangtasvir bilan qiyoslab tushuntirib bering.*

*5. Badiiy adabiyotni kino san'ati bilan qiyoslang, o'xshash va farqli tomonlarini ko'rsating. Kino asari tomosha qilinadi, adabiy asar o'qiladi. Badiiy asarni ikki xil yo'sinda qabul qilishning farqli tomonlari nimada? Insonning ma'naviy-ruhiy yuksalishiga bulardan qaysisi kuchliroq ta'sir ko'rsatishi mumkin? Nima uchun?*

## Adabiyotlar:


1.Фитрат. Адабиёт қоидалари. Т., 1995

2.Форобий Абу Наср. Фозил одамлар шаҳри.-Т.,1993

3.Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш. Т.,1995

4.Тошмуҳамедова Л. Қодирий театр ва кино санъати ҳақида//Ўзбек тили ва адабиёти.-2001.-№6.-Б. 56-59.

5.Жўрақулов У. 20-йиллар ўзбек адабиётшунослигида санъатнинг назарий талқинлари//Ўзбек тили ва адабиёти.-2001.-№2.-Б. 38-41

6.Ортега-и-Гассет. Дегуманизация искусства.-М.: Радуга, 1991

7.Тен И. Философия искусства.-М.,1996

8.Потебня А. Эстетика и поэтика.-М.,1976

9.Борев Ю.Б. Эстетика -М., 1988.

10.Минералов Ю.И. Теория художественной словесности.-М.,1999

# Badiiy obraz va obrazlilik

***Obrazli tafakkur (obrazlilik) san'atning spetsifik xususiyati sifatida. Badiiy obraz tushunchasi. Badiiy obraz xususiyatlari. Inson obrazi va uni yaratish vositalari. Badiiy obraz turlari.***

San'atning obraz vositasida fikrlashi uning spetsifik, ya'ni, tur sifatida belgilovchi xususiyatidir. San'atkor badiiy obraz vositasida dunyoni anglaydi, o`zi anglagan mohiyatni va o`zining anglanayotgan narsaga hissiy munosabatini ifodalaydi. Shu ma'noda obraz adabiyot va san'atning fikrlash shakli, usuli sanaladi; obrazlar vositasida fikrlagani uchun ham adabiyot va san'atga xos fikrlash tarzi "obrazli tafakkur" deb yuritiladi.

Obrazli tafakkur bilan tushunchalar vositasidagi tafakkur tarzining farqi nimada? Bundagi farqni yorqinroq tasavvur etish uchun fan va badiiy adabiyotni qiyoslab ko`rish mumkin. Misol uchun, bir xil masala yuzasidan fikr yuritayotgan olim va shoirni olib ko`raylik. A.Oripovning "Ayol" she'ri hammangizga tanish, unda ikkinchi jahon urushida eridan yosh beva qolgan, umrini farzandiga bag`ishlagani holda sadoqat bilan yashagan ayol haqida so`z boradi. Shoir ko`z oldimizda konkret ayolni, uning foje taqdirini gavdalantirish orqali umuman urush haqida, uning oqibatlari haqida, og`ir damlarda sinaluvchi insoniy hislar haqida mushohada yuritadi. Xo`p, xuddi shu she'rdagi masala xususida, masalan, tarixchi olim qanday fikr yuritadi: "Ikkinchi jahon urushi janggohlariga ...-, ...-yillarda tug`ilgan yigitlar to`la safarbar etildi. Urush harakatlarida sho`ro hukumati insonni tejash yo`lidan bormadi, janggohlarda ... nafar jangchi halok bo`ldi. Buning natijasida urushdan so`ng jamiyatda erkak va ayollar nisbatida nomutanosiblik yuzaga keldi, demografik vaziyat tanglashdi. Ko`plab ayollar yolg`iz umrguzaronlik qilishga mahkum bo`ldi. Jamiyatda "yolg`iz ayol" toifasi yuzaga keldi". Ko`rib turganimizdek, olim shoirdan tamomila farqli yo`ldan boradi, uni umumlashtirilgan faktlargina qiziqtiradi. Olim konkret inson taqdiri haqida emas, undan o`zini chetlashtirgan (abstraktlashgan) holda umumlashmalar, tushunchalar asosida fikr yuritadi. Ma'lum bo`ldiki, mohiyat e'tibori bilan shoir va olimni o`ylantirayotgan muammo bitta. Biroq, shoir

bitta konkret ayol taqdirini badiiy tasvirlash (obrazini yaratish) orqali umumlashmaga boradi, baski, obraz uning uchun fikrlash shakli, usuli bo`lib qoladi. Ya'ni, olim ko`plab faktlarni (konkret hodisalar, insonlar v.h.) o`rganib, ularning umumiy xususiyatlari asosida ilmiy xulosalar, umumlashmalar chiqarsa, san'atkor konkret faktni individual tasvirlash orqali umumlashmaga intiladi.

"Obraz" termini rus tilidan olingan bo`lib, o`zbekcha tarjimada "aks" degan ma'noni anglatadi. Masalan, kishining oynadagi aksiga nisbatan ham "obraz" deb aytiladi. Biroq, bilasizki, so`zning lug`aviy ma'nosi bilan istilohiy ma'nosi farqlanadi: lug`aviy ma'no bilan istilohiy ma'no orasida tutash nuqtalar bo`lsa-da, mutaxassis istiloh ostida konkret ma'noni tushunmog`i lozim bo`ladi. Shunga ko`ra, biz "obraz" deganda adabiyot va san'atning tafakkur shakli bo`lmish badiiy obrazni nazarda tutamiz.

Badiiy obraz borliqning (undagi narsa, hodisa v.h.) badiiy asardagi aksi. Biroq badiiy obraz o`sha borliqning oddiygina aksi emas, yo`q, u borliqning san'atkor ko`zi bilan ko`rilgan va ideal asosida ijodiy qayta ishlangan aksidir. Bu aksda borliqning ko`plab tanish izlarini topasiz, biroq bu endi biz bilgan borliqning ayni o`zi emas, balki tamoman yangi mavjudlik - badiiy borliqdir.

Fikrimizni oydinlashtirish uchun musavvir ijodiga murojaat qilaylik. Musavvir yaratgan peyzaj - tabiat manzarasi tasviri bilan "natura" - asarga asos bo`lgan real manzara orasida juda katta tashqi o`xshashlikni topishimiz va, hatto, "xuddi o`zi-ya" deya hayratlanishimiz mumkin. Ehtimol, kim uchundir bu nav hayrat musavvir ijodiga berilgan yuksak baho bo`lib ko`rinar, aslida esa bu xil baho san'atni tushunmasligimizdan dalolat, xolos. Ya'ni, biz musavvir ayricha bo`rttirgan bo`yoqlarni, uning.kechinmalariga "hamohang" ranglar jilosini, bizning nazarimizda ahamiyatsiz ko`ringani uchun e'tibor bermaganimiz, biroq muallif nazarida muhim bo`lgani uchun bo`rttiribroq berilgan chizgini, naturada bo`lsa-da asarda aksini topmagan yoki bo`lmasa-da asarda aks ettirilgan jajji detalni, ... ilg`ay olmagan bo`lib chiqamiz. Boshqacha aytsak, obrazdagi obyektiv ibtidoni ko`rganimiz holda, undagi subyektiv ibtidoni - asarga singdirib yuborilgan muallifni, muallif qalbini ko`ra olmadik. Modomiki badiiy obrazda faqat obyektiv ibtidonigina ko`rar ekanmiz, demak, asarni ko`rmagan - badiiyat hodisasidan chetda qolgan bo`lib chiqamiz. Zero, badiiyat ijod va

retsepsiya (o`qish, tomosha qilish, tinglash) jarayonlaridagina mavjuddir. Bundan ko`rinadiki, haqiqatda badiiy obrazning materiali real voqelikgina emas, ijodkor shaxsiyati hamdir. Shu vajdan ham bir xil mavzuni qalamga olgan ikki yozuvchi, bitta narsaning suratini chizgan ikki rassom tomonidan yaratilgan obrazlar bir xil bo`lmaydi, bo`lolmaydi.

Badiiy obrazning xususiyatlari haqida so`z ketganda, birinchi galda, uning *individuallashtirilgan umumlashma* sifatida namoyon bo`lishi xususida to`xtalish zarur. Ma'lumki, voqelikdagi har bir narsa-hodisada turga xos umumiy xususiyatlar bilan birga uning o`zigagina xos xususiyatlar mujassamdir. Yuqorida, obrazli va abstrakt tafakkur haqida fikr yuritganimizda, bunga qisqacha to`xtalib o`tdik. Gap shundaki, abstrakt tafakkur narsa-hodisaning umumiy xususiyatlariga, obrazli tafakkur esa individual xususiyatlariga tayangan holda fikrlaydi. Deylik, fan umuman odam haqida (masalan, biolog umuman odamning fiziologik xususiyatlari haqida) so`z yuritishi mumkin, biroq san'at hech vaqt umuman odam obrazini yarata olmaydi. Shu ma'noda *konkretlilik* - badiiy obrazning muhim spetsifik xususiyatlaridan biri sanaladi. Shu o`rinda yana A.Oripovning "Ayol" she'riga qaytsak. Hech shubhasiz, she'rdagi ayol obrazi o`zida katta badiiy umumlashmani tashiydi va shu bilan birga u o`quvchi ko`z o`ngida konkret bir inson sifatida gavdalanadi. San'atkor umumlashmaga obrazning individual xususiyatlarini bo`rttirish orqali erishadi. Masalan, A.Qahhorning "O`g`ri" hikoyasida Qobil boboning amin huzuriga kelganini eslang. Yozuvchi amin haqida: "og`zini ochmasdan qattiq kekirdi, keyin baqbaqasini osiltirib kuldi", "chinchalog`ini ikkinchi bo`g`inigacha burniga tiqib kuldi" qabilidagi individual belgilarni bo`rttiradi. Ayni shu individual belgilarning bo`rttirilishi hisobiga adib katta badiiy umumlashmaga erishadi: zamona amaldorlariga xos bo`lgan qo`l ostidagi fuqaroning taqdiriga befarqlikni ko`rsatadi. Ya'ni, amin obrazi ko`z oldimizda individual xususiyatlariga ega bo`lgan konkret inson sifatida gavdalanadi, ayni shu *individuallashtirish hisobiga obraz umumlashmalilik kasb etadi*. Ko`rinadiki, shu tariqa badiiy obrazda bir paytning o`zida bir-biriga zid ikki jihat (individuallik va umumiylik) uyg`un tajassumini topadi.

Badiiy obraz o`zida aql va hisni uyg`un birlashtiradiki, shu bois uni *ratsional* va *emotsional birlik* sifatida tushuniladi. Badiiy obrazdagi

ratsional jihat shuki, uning yordamida ijodkor o`zini qiynagan muammolarni badiiy idrok etadi. Masalan, Cho`lponni Turkistonning tarixiy taraqqiyoti masalalari, yurtining ertasi haqidagi o`ylar tashvishlantirgan. O`zini qiynagan muammolarni Cho`lpon "Kecha" romanidagi qator obrazlar vositasida badiiy tadqiq etadi, asardagi obrazlar tizimi vositasida o`zining badiiy fikri(tugal bir qarash, tizim holidagi xulosa - konsepsiya)ni shakllantiradi va ayni shu obrazlar orqali o`zi anglagan haqiqatni badiiy fikr(konsepsiya) tarzida ifoda etadi. Ayni paytda, asarda yaratilgan obrazlarda adibning hissiy munosabati ham o`z aksini topgan. Ijodkorning hissiy munosabati badiiy konsepsiyani shakllantirishda, asar mazmunining o`quvchiga yetkazilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, obrazlar tizimidagi har bir konkret obrazning hissiy tonalligi turlicha bo`lib, bu narsa birinchi galda muallifning ijodiy niyati bilan bog`liq bo`ladi. Masalan, "Kecha" romanining boshlanishidayoq Cho`lpon Zebiga bir turli, Razzoq so`figa yana bir turli, Akbaraliga esa boshqa bir turli munosabatda bo`ladi. Voqealar rivojlanib borgani sari muallifning ularga hissiy munosabatida ham ma'lum o`zgarishlar kuzatiladi. Aytaylik, adibning asar boshlanishidagi Zebiga nisbatan shaydolik to`la mehri susayib boradi (adib xarakter mohiyatini xolis idrok etib boradi), Razzoq so`figa yoki Akbaraliga nisbatan mazaxli nafrat qisman achinishga aylanib boradi (adib ularning taqdiridagi fojelikni kashf etadi). Ya'ni, adibning o`zi xarakter mohiyatiga kirgani sari qahramonlariga nisbatan hissiy munosabatida o`zgarish yuzaga keladi. Hissiy munosabatdagi o`zgarish o`qish jarayonida kitobxonga ham o`tadi va ayni shu narsa uning asar mazmunini adib istaganidek tushunishiga asos bo`lib xizmat qiladi. Ko`rinadiki, badiiy obrazdagi ratsional va emotsional jihatlarning uyg`unligi asar badiiy konsepsiyasini shakllantirilishida ham, ifodalanishida ham birdek muhim ahamiyatga ega ekan.

Badiiy obrazning muhim xususiyatlaridan yana biri uning *metaforikligi* sanaladi. Bu o`rinda "metaforiklik"ni keng ma'noda tushunish, uni "o`xshashlik"ning o`zi bilangina bog`lab qo`ymaslik lozim. Ya'ni, "metaforiklik" deganda badiiy obrazning bir narsa mohiyatini boshqa bir narsa orqali ochishga intilishi, san'atga xos fikrlash yo`sini tushuniladi. Chinakam san'atkor nigohi mohiyatga qaratilgan bo`lib, u voqelikdagi narsa-hodisalarning barchamizga

ko`rinib turgan tashqi o`xshashligi emas, bizning nigohimizdan yashirin ichki o`xshashligiga tayangan holda fikrlaydi. San'atkor biz uchun kutilmagan ichki o`xshashlikni inkishof etadiki, natijada o`sha biz bilgan narsa-hodisa ko`z oldimizda butkul yangicha bir tarzda suratlanadi, o`zining bizga noayon qirralarini namoyon etadi. Masalan, musavvir ijodi haqida, rangtasvir san'atining o`ziga xosligi haqida hammamiz ham ma'lum bir tasavvurga egamiz. Shoir (X.Davron) esa bu haqda yozadi:

Musavvir bo`lmoq ersang,
Tilingni sug`urib ol
Va yaradan to`kilgan
Qon rangiga quloq sol.

Albatta, rangtasvirda ranglar "gapirishi" hammamizga ma'lum, biroq ayni shu fikrning "gapirayotgan qon rangi" obrazi orqali berilishi - kashfiyot, metaforik fikrlash natijasi va xuddi shu narsa bizni hayratga soladi, shuurimizda muqim o`rinlashadi. Mohiyatga qaragan san'atkor qobig`iga o`ralib yashayotgan odam bilan sassiq ko`lmakdagi tilla baliqcha yoxud o`zida cheksiz kuch qudrat sezgani holda maqsaddan mosuvo yashayotgan odam bilan bemaqsad uchib yurgan burgut orasida(A.Oripov), turg`unlikning biqiq muhitida yashayotgan ziyoli bilan bir izdan beto`xtov yurayotgan tramvay(A.A'zam) yoxud qatag`on sharoitida ijod qilayotgan shoir bilan vahshiy qoyalar orasida quyoshga oppoq gul uzatgancha nafis chayqalayotgan na'matak(Oybek) orasida o`xshashliklar topadi, birining mohiyatini ikkinchisi orqali ochib beradi. Keltirilgan misollardan ko`rinadiki, obrazli tafakkurda yuksak darajadagi assotsiativlik kuzatiladi.

Ma'lumki, *assotsiativlik* umuman inson tafakkuriga xos narsa. Zero, tashqi olam ta'sirida ongimizda biror narsaning aksi paydo bo`lishi hamono u bilan bog`liq assotsiatsiyalar ham uyg`onadi. Masalan, "qish" deyilishi bilan xayolimizda assotsiativ tarzda "qor", "sovuq", "po`stin", "chana" kabi u bilan bog`liq tushunchalar uyg`onadi. Obrazli tafakkurni yuksak darajada assotsiativ deyishimizning sababi shundaki, reallikda ko`rilgan bir narsa san'atkor xayolida butunlay boshqa bir narsani, u bilan mutlaqo aloqasi bo`lmagan narsani uyg`otishi mumkin. Shu bois ham san'atkor yuqoridagicha o`xshashliklarni topadi va uni badiiy obrazda aks ettiradiki, natijada o`sha obraz ham yuksak darajadagi assotsiativlik

kasb etadi. Badiiy obraz yakma'no bo`lolmaydi, ko`p ma'nolilik uning tabiatiga xos yana bir muhim xususiyatdir. Badiiy obrazning ko`p ma'noliligi, avvalo, uning assotsiativligi bilan bog`liq holda izohlanadi. Buni, ayniqsa, assotsiativlik darajasi yuqori bo`lgan ramziy obrazlar misolida yaqqol ko`rishimiz mumkin. Masalan, Oybekning mashhur "Na'matak" she'rini olaylik. Undagi tabiat manzarasini obraz deb olsak, tabiiyki, uning birinchi ma'nosi tabiat manzarasining o`zi. Holbuki, shoir o`z vaqtida shu manzarada assotsiativ ravishda istibdod tuzumi sharoitidagi ijodkor taqdirini ko`rgan va shu ma'noni obrazda ifodalagan. Ayni paytda, mazkur obrazning ma'no ko`lami shularning o`zi bilangina cheklanmaydi: o`quvchi o`z hayotiy tajribasi, she'rni o`qish paytidagi ruhiy holati bilan bog`liq ravishda bu obrazda tamomila boshqa mazmunni, o`z mazmunini ham topishi mumkin bo`ladi. Aytish kerakki, ko`p ma'nolilik nafaqat ramziy, balki tom ma'nodagi realistik obrazlarga ham xosdir. Faqat bunda endi ko`p ma'nolilikning yuzaga kelish mexanizmi o`zgacharoq. Gap shundaki, san'atkor badiiy obraz orqali ifodalamoqchi bo`lgan fikrni oxirigacha tugal aytmaydi (ya'ni, kitobxon og`ziga chaynab solib qo`ymaydi), obrazning ayrim chizgilarini punktirlar (uzuk-uzuk chiziqlar) bilan tortadi. Ya'ni, san'atkor obrazda ma'lum imkoniyatlar yaratadi-da, ularni ro`yobga chiqarishni o`quvchiga qoldiradi. Bu xil imkoniyatlar, ayniqsa, "obyektiv tasvir" yo`sinidan borilgan, yozuvchi xolis kuzatuvchi mavqeida turgan asarlarda kuchli namoyon bo`ladi. Garchi asarda tasvirlangan narsa bitta bo`lsa-da, o`quvchilarning ijodiy tasavvur imkoniyatlari, dunyoqarashi farqliligidan konkret obraz ularning ongida turlicha akslanadi, turli xulosalarga olib keladi. Shu bois ham o`quvchilar tasavvurida minglab Otabeg-u Kumushlar, Qobil bobo-yu Saidalar, Zebi-yu Miryoqublar yashaydi. Badiiy obrazga xos ayni shu xususiyat tufayli ham asarni turli davrlarda turlicha uqish, uning zamiridan yangi-yangi ma'nolarni ochish imkoni yaratiladiki, ayni shu xususiyat chinakam san'at asarini boqiylikka daxldor etadi.

Adabiyotshunoslikda "badiiy obraz" atamasi ham keng, ham tor ma'nolarda ishlatiladi. Keng ma'noda "badiiy obraz" deganda borliqning san'atkor ko`zi bilan ko`rilgan va ijodiy qayta ishlangan har qanday aksi (jonivorlar, narsa-buyumlar, hodisalar, tabiat obrazlari) nazarda tutilsa, tor ma'noda badiiy asardagi inson obrazi